



“AMMOFOS-MAXAM”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING
UMUMIY YIG’ILISHI
TOMONIDAN
TASDIQLANGAN

2018 yil 30 aprel


2-18 - sonli bayonnomma

“AMMOFOS-MAXAM”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
USTAVI
(uchinchchi yangi tahrir)

Olmaliq - 2018 yil

MUNDARIJA

1-MODDA. JAMIYATNING NOMI, JOYLASHGAN YERI (POCHTA MANZILI), ELEKTRON POCHTA MANZILI VA YURIDIK MAQOMI	1
2-MODDA. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI)	3
3-MODDA. JAMIYAT USTAV FONDI	4
4-MODDA. USTAV FONDINI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI	4
5-MODDA. AKSIYALARING TURLARI VA NOMINAL QIYMATI	5
6-MODDA. DAROMADI (FOYDANI) TAQSIMLASH, DIVIDENDLARNI TO'LASH	6
7-MODDA. ZAXIRA FONDINI TASHKIL ETISH TARTIBI	7
8-MODDA. AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA BURCHLARI	8
9-MODDA. JAMIYATNI BOSHQARUV VA NAZORAT ORGANLARI	9
10-MODDA. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI	9
11-MODDA. KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI	16
12-MODDA. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI	21
13-MODDA. TAFTISH KOMISSIYASI	25
14-MODDA. HISOB-KITOB VA HUJJATLAR	26
15-MODDA. NIZOLARNI HAL ETISH	29
16-MODDA. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH	29
17-MODDA. YAKUNLOVCHI QOIDALAR	31



“AMMOFOS-MAXAM” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVI

“Ammofos-Maxam” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon “**Jamiyat**” deb yuritiladi) ushbu Jamiyat ustawini (bundan buyon “**Ustav**” deb yuritiladi) 2018 yil 30 aprel kuni o’tkazilgan Umumiy Yig’ilishda (quyida ma’nosи ta’riflangan) O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O’zbekiston Respublikasining 2014 yil 6-maydagi 370-son “*Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida*”gi qonuni, O’zbekiston Respublikasining 1998 yil 30-apreldagi 609-I-son “*Chet el investitsiyalari to’g’risida*”gi qonuni (unga kiritilgan o’zgartish va qo’shimchalar bilan) hamda O’zbekiston Respublikasining 1998 yil 30-apreldagi 611-I-son “*Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralarini to’g’risida*”gi qonuniga (unga kiritilgan o’zgartish va qo’shimchalar bilan) muvofiq ma’qulladi.

Shuningdek, Ustavning 10.5, 10.9, 10.36, 10.38, 10.45, 11.22 bandlari O’zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan Korxonalarga Yordam Berish va Raqobatni Rivojlantirish Davlat Qo’mitasini (O’zbekiston Respublikasi Davlat Mulkini Boshqarish Davlat Qo’mitasining belgilangan vorisi) va «MaxamCorp International S.L.» kompaniyasi o’rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga asosan tartibga solingan.

Ushbu Ustavda ishlatilgan atama va iboralar uning A-Ilovasidagi *Atamalar To’plamida* ko’rsatilgan ma’noga egadir.

1-MODDA. JAMIYATNING NOMI, JOYLASHGAN YERI (POCHTA MANZILI), ELEKTRON POCHTA MANZILI VA YURIDIK MAQOMI

1.1. Tashkiliy shakli. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati bo’lib, ushbu Ustav davlat ro’yxatidan o’tkazilgunga qadar “Ammofos-Maxam” ochiq aksiyadorlik jamiyati deb nomlangan edi, hamda u tijorat tashkiloti bo’lib, uning Ustav Fondi Aksiyadorlarning Jamiyatga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi joylashtirilgan kelishgan Aksiyalar sonidan tashkil topgan.

1.2. Rasmiy nomi. Jamiyatning rasmiy nomi quyidagicha:

- 1.2.1 o’zbek tilida - “*Ammofos-Maxam*” aksiyadorlik jamiyatি;
- 1.2.2 ingliz tilida - *Joint Stock Society “Ammofos-Maxam”*; va
- 1.2.3 rus tilida - *акционерное общество “Ammofos-Maxam”*.

1.3. Qisqartma nomi. Jamiyatning qisqartma nomi quyidagicha:

- 1.3.1 o’zbek tilida - “*Ammofos-Maxam*” AJ;
- 1.3.2 ingliz tilida - “*Ammofos-Maxam*” JSS;
- 1.3.3 rus tilida - “*Ammofos-Maxam*” AO.

1.4. Joylashgan yeri (pochta manzili). Elektron pochta manzili. Jamiyatning joylashgan yeri va pochta manzili quyidagicha: *O’zbekiston Respublikasi, 110100, Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Ishlab Chiqarish zonasi*. Elektron pochta manzili quyidagicha: info@ammofos-maxam.uz.

1.5. Qayta tuzilish va huquqiy vorislik. Jamiyat davlat korxonasi bo’lmish “Ammofos” ishlab chiqarish uyushmasining O’zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash davlat qo’mitasining 2001 yil 15-avgust 229k-PO-soni



buyrug'iga binoan aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi natijasida tashkil etilgan. Jamiyat davlat korxonasi bo'l mish "Ammofos" ishlab chiqarish uyushmasining huquqiy vorisi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 50-moddasiga muvofiq qayta tashkil etilgan korxonaning barcha huquq va burchlari unga o'tdi. Aksiyadorlar Jamiyatning nomini davlatga tegishli Aksiyalar chet ellik investor tomonidan 2007 yil 28-dekabrdan O'zbekiston Respublikasining Davlat Mulki Qo'mitasi, MaxamCorp, Jamiyat hamda O'zKimyoSanoat o'rjasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq sotib olinganidan so'ng o'zgartirdilar hamda 1.2-band va 1.3-bandda ko'rsatilgandek nomladilar.

1.6. Jamiyatning maqomi. Jamiyat Amaldagi Qonun Hujjaligiga muvofiq mustaqil yuridik shaxs bo'lib, uning huquq layoqati Aksiyadorlarining huquq layoqatidan alohida bo'ladi, o'z faoliyatini Amaldagi Qonun Hujjalari, Aksiyadorlik Shartnomasi hamda mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatuvchi chet el sarmoyali korxonalarga berilgan barcha huquqlar, imtiyozlar, konsessiyalar va yengilliklardan foydalanadi. Jamiyat o'zining mustaqil balansiga ega bo'lib, xo'jalik hisobi va o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash asosida ishlaydi. Hech bir Aksiyador mustaqil ravishda Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega emas.

1.7. Jamiyatning huquqlari. Jamiyat ushbu Ustavda ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun o'z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olish va ulardan foydalanish hamda zimmasiga majburiyatlar olish, sudda da'vogar va javobgar bo'lish huquqiga ega.

1.8. Sho'ba va tobe jamiyatlar. Jamiyat yuridik shaxs huquqini olgan sho'ba va tobe jamiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Jamiyat va sho'ba hamda tobe jamiyatlar o'rjasidagi o'zaro munosabatlар Amaldagi Qonun Hujjalari bilan tartibga solinadi.

1.9. Muhr, shtamp va blanklar. Jamiyat o'zining nomi o'zbek va ingliz tillarida yozilgan muhriga, shtampiga hamda blankiga, shuningdek savdo belgisiga, o'z timsoliga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lib, ularning shakli Kuzatuv Kengashi tomonidan ma'qullanadi.

1.10. Ro'yxatdan o'tish. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlarini qo'lga kiritadi.

1.11. Faoliyat muddati. 16-MODDA. da qoidalarini hisobga olgan holda, Jamiyat faoliyatining muddati cheklanmagan.

1.12. Javobgarlik. Jamiyat o'z majburiyatları yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javobgar bo'ladi. Jamiyat Aksiyadorlar yoki O'zbekiston Respublikasi va Davlat Organlari majburiyatları bo'yicha javob bermaydi. O'zbekiston Respublikasi, agar aniq yozma ravishda bunday majburiyatni olgan bo'lmasa, Jamiyatning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Hech bir Aksiyador Jamiyatga majburiyat yuklash yo uning o'miga harakat qilish, yoki uning nomidan biron-bir majburiyat yo javobgarlik olish huquqiga ega emas, ushbu Ustavda aniq belgilangan hollar yoki tegishli Aksiyadorlar bilan aniq yozma ravishda kelishilgan hollar bundan mustasno.

1.13. Jamiyatning mol-mulki. Jamiyat Aksiyadorlar tomonidan Ustav Fondiga kiritilgan mol-mulkka, hamda qo'shimcha joylashtirilgan Aksiyalar uchun to'lov sifatida berilgan pul mablag'lari va mol-mulkka egalik qiladi.

1.14. Jamiyatning mustaqilligi. Jamiyat o'zining ishlab chiqarish yo'nalishlari va uslublarini, ma'muriy tizimlarni, qaror qabul qilish tartibini, bozor siyosatini, baho belgilash, maosh to'lash, Dividendlar to'lash siyosatini hamda o'z faoliyati va ichki boshqaruving barcha qolgan jihatlarini Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydi.

2-MODDA. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI)

2.1. Maqsadlar. Jamiyatning asosiy maqsadi - Jamiyat Aksiyadorlarining iqtisodiy manfaatlari, intellektual imkoniyatlari, moddiy, nomoddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatini yuritish uchun birlashtirish, shu jumladan fosforlik va boshqa turdag'i o'g'itlarni ishlab chiqarish va sotish.

2.2. Faoliyat yo'nalishlari. Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

2.2.1 Mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni ichki va tashqi bozorlarda sotish, jumladan Mahsulotlarni chet elga Erkin Almashtiriladigan Valyutaga jahon bozori narxlarida sotish;

2.2.2 tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish, jumladan Jamiyatning ishlab chiqaruvini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash va uning eksport bazasini rivojlantirish maqsadida har qanday turdag'i xalqaro hamkorlikda ishtiroy etish;

2.2.3 ulgurji va chakana savdo;

2.2.4 ishlab chiqarish quvvatlari va texnologiyalarini ishlatish va takomillashtirish;


2.2.5 2.1-bandda ko'rsatilgan asosiy maqsadga bog'liq yoki tegishli bo'lgan boshqa qonuniy ishlarni amalga oshirish.

2.3. Jamiyatning faoliyati. Jamiyat butun faoliyati muddati davomida o'zining maqsadlariga erishish uchun ushbu Ustav va Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining hududida hamda uning tashqarisida Amaldagi Qonun Hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa turdag'i xo'jalik faoliyatlarini amalga oshiradi.

2.4. Litsenziyaga asosan olib boriladigan faoliyatlar. Jamiyatning xo'jalik faoliyati qat'yan va to'liq Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq olib borilishi lozim. Garchi biron-bir faoliyat uchun Davlat Organidan ruxsatnomasi yoki litsenziya olinishi talab qilinsa, Jamiyat bunday faoliyatni kerakli Davlat Organining ruxsatnomasini yoki litsenziyasini olmasdan amalga oshirmaydi.

2.5. Aksiyadorlar bilan bitimlar tuzish. Aksiyadorlik Sharfnomasining qoidalarini e'tiborga olgan holda, bir tarafdan Jamiyat, ikkinchi tarafdan Aksiyadorlar yoki ularning Bog'liq Shaxslari o'rtaSIDagi bitimlar manfaatdorlik bo'lmasligi va huquqiy/moliyaviy mustaqillik shartlari asosida, muayyan soha standartlarga rioya qilgan holda hamda bunday bitimlarning shartlari Jamiyatga uning uchun Bog'liq Shaxs bo'limgan biron-bir uchinchi shaxs tomonidan belgilangan shartlarga nisbatan qulaysizroq bo'lmasligi lozimligini tushungan holda tuziladi. Bir tarafdan Jamiyat, ikkinchi tarafdan Aksiyador yoki uning Bog'liq Shaxsi o'rtaSIDagi muhim yoki davom etayotgan faoliyat bunday taraflar o'rtaSIDA tuzilgan va Jamiyatning tegishli boshqaruvi organlari tomonidan dastlab o'rganilishi va ma'qullanishi lozim bo'lgan yozma sharfnomalar asosida yuritiladi Aksiyadorlik jamiyatlarini to'g'risida qonunning 9-bobida ko'rsatilgan tartibda.

2.6. Xalqaro sifat. Jamiyat Mahsulotning xalqaro ishlab chiqarish standartlariga mos



kelishi uchun uning tegishli sifatini ta'minlovchi va bunday mahsulotlarni cheklanmagan tarzda jahon bozorlarida sotishga imkon beruvchi tegishli tartiblar va qoidalarni joriy qiladi.

3-MODDA. JAMIYAT USTAV FONDI

3.1. Ustav Fondi. Jamiyat 4.939.360.000 (to'rt milliard to'qqiz yuz o'ttiz to'qqiz million uch yuz oltmisht ming) so'm miqdorida 987.872 (to'qqiz yuz sakson yetti ming sakkiz yuz yetmisht ikki) dona Aksiyaga bo'lingan ustav fondiga ega ("Ustav Fondi"). Ustav Fondi Aksiyadorlar sotib olgan Aksiyalarning nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha Aksiyalarning nominal qiymati bir hil bo'lishi lozim.

3.2. Aksiyalarning shakli. Aksiyalar hujjatsiz shaklda chiqariladi va Amaldagi Qonun Hujjalarda belgilangan tartibda Markaziy Depozitariyda saqlanadi.

3.3. Aksiyalarning nominal qiymati. Har bir Aksiyaning nominal qiymati 5000 (besh ming) so'm.

3.4. Aksiyadorlar reyestri. Markaziy Depozitariy Aksiyadorlarning yozma murojaati asosida Aksiyadorlar reyestrini ("Aksiyadorlar Reyestri") Amaldagi Qonun Hujjalarda belgilangan tartibda amalga chiqaradi.

3.5. Aksiya Miqdori. Agar Umumiy Yig'ilish boshqacha qaror qabul qilmasa, Aksiyadorlar har doim Ustav Fondida quyida ularning nomi qarshisida ko'rsatilgan aksiya miqdoriga ("Aksiya Miqdori") ega bo'lishi lozim:


Aksiyador	Aksiya Miqdori
O'zKimyoSanoat	51%
MaxamCorp	49%

4-MODDA. USTAV FONDINI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

4.1. Ustav Fondini ko'paytirish. Ustav Fondi Amaldagi Qonun Hujjalari hamda ushbu Ustavga muvofiq qo'shimcha Aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

4.2. Ko'paytirish tartibi. Ustav Fondini qo'shimcha Aksiyalarni joylashtirish yoli bilan ko'paytirish to'g'risidagi qaror Umumiy Yig'ilish tomonidan qabul qilinadi. Ustav Fondini ko'paytirish uchun qo'shimcha joylashtirilgan Aksiyalarga obuna bo'lish Amaldagi Qonun Hujjalariiga muvofiq amalga oshirilib, bunday obunadan keyin Aksiyadorlar, agar ular yozma ravishda boshqa kelishuvga kelgan bo'lmasalar, 3.4-bandda ko'rsatilgan Aksiya Miqdori nisbatini saqlab qolishi lozim. Aksiyadorlik Sharfnomasining qoidalarini hisobga olgan holda, Aksiyadorlar qo'shimcha joylashtirilayotgan Aksiyalarni birinchi navbatda sotib olishda imtiyozli huquqlarga ega.

4.3. Ustav Fondini kamaytirish. Ustav Fondi Amaldagi Qonun Hujjalari hamda ushbu Ustavga muvofiq Aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki Aksiyalarning bir qismini keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan qaytarib sotib olish orqali ularning umumiy sonini qisqartish yoli bilan kamaytirilishi mumkin.



- 4.4. Kamaytirish tartibi.** Ustav Fondini kamaytirish va Ustavga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qaror Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq Umumiy Yig'ilishda qabul qilinadi.
- 4.5. Minimal kamaytirish.** Agar Ustav Fondini kamaytirish natijasida uning miqdori Ustavga kiritilgan tegishli o'zgartishlarni ro'yxatdan o'tkazish kuni belgilanadigan Ustav Fondining Amaldagi Qonun Hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, Jamiyat Ustav Fondini kamaytirishga haqli emas.
- 4.6. Kamaytirish sabablari.** Ustav Fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtida Umumiy Yig'ilish Ustav Fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.
- 4.7. Manfaatlarni himoya qilish.** Ustav Fondini kamaytirish vaqtida Jamiat tugatilganida nazarda tutiladigan Aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish shartlariga rioya etilishi zarur.
- 4.8. Aksiyalarni sotib olish.** Ustav Fondi Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq yoki boshqa sabab bilan kamaytirilganda Jamiat joylashtirilgan Aksiyalarning bir qismini Aksiyadorlardan ularning Aksiya Miqdoriga mutanosib ravishda Umumiy Yig'ilish Ustav Fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan sanadan keyin uzog'i bilan 2,5 (ikki yarim) oy ichida sotib olishga haqlidir. Jamiat Aksiyalarni sotib olish to'g'risida murojaat tushgan kundagi bozor qiymati bo'yicha sotib olishga haqlidir. Jamiat Aksiyadorga to'lovni bunday Aksiyalar dastlab sotib olingan valyutada to'laydi.

5-MODDA. AKSIYALARING TURLARI VA NOMINAL QIYMATI

- 5.1. Aksiyalar muomalasi tartibi.** Jamiatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ro'yxatga olish, joylashtirish va ular bo'yicha to'lovlar amalga oshirish tartibi Amaldagi Qonun Hujjatlari hamda ushbu Ustavda belgilangan.
- 5.2. Aksianing maqomi.** Aksiya egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u Ustav Fondining bir qismiga egalik qilishini tasdiqlaydi hamda boshqaruvda ishtirok etish va foydaning bir qismini Dividend shaklida olish huquqini beradi.
- 5.3. Aksiyalarni joylashtirish.** Jamiat 987.872 (to'qqiz yuz sakson yetti ming sakkiz yuz yetmish ikki) dona hujjatsiz shakldagi Oddiy Aksiya chiqarib joylashtirdi. Jamiat e'lon qilingan Aksiyalar soni doirasida Imtiyozli Aksiyalar joylashtirishi mumkin. Oddiy Aksiyalar va Imtiyozli Aksiyalar 5.6-band va **Ошибка! Источник ссылки не найден.-bandda** aytilgan huquqlarga ega.
- 5.4. E'lon qilingan Aksiyalar.** Jamiat Umumiy Yig'ilish qarori bilan e'lon qilingan Aksiyalar soni doirasida qo'shimcha Oddiy Aksiyalar va Imtiyozli Aksiyalar joylashtirishga haqli. Jamiat kelajakda joylashtirishi mumkin bo'lган e'lon qilingan Aksiyalarning sonini ma'qullash yoki ko'paytirish to'g'risidagi qaror Umumiy Yig'ilishda qabul qilinadi.
- 5.5. Qimmatli qog'ozlar.** Jamiat Aksiyalar, obligatsiyalar va Amaldagi Qonun Hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga haqli.
- 5.6. Oddiy Aksiyalar.** Jamiat oddiy egasi yozilgan Aksiyalarni ("Oddiy Aksiyalar") e'lon qilish va joylashtirish huquqiga ega bo'lib, bunday Oddiy Aksiyalar Aksiyadorga quyidagi huquqlarni beradi:

- 5.6.1 har bir Oddiy Aksiya bo'yicha Umumiy Yig'ilishda 1 (bitta) ovoz berish;
- 5.6.2 har bir Oddiy Aksiya bo'yicha Dividendlar olish;
- 5.6.3 Umumiy Yig'ilishlarda va Jamiyat boshqaruvida ushbu Ustavga muvofiq ishtirok etish;
- 5.6.4 Jamiyat tugatilgan taqdirda uning mol-mulkidan o'zining Aksiya Miqdoriga mutanosib qismini olish.

5.7. Imtiyozli Aksiyalar. Jamiyat Aksiyadorga quyidagi imtiyozlarni beruvchi egasi yozilgan imtiyozli Aksiyalarni ("Imtiyozli Aksiyalar") e'lon qilish va joylashtirish huquqiga ega:

5.7.1 Jamiyat 16.9 bandida korsatilgan tartibda tugatilayotganda Aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni olish;

5.7.2 Jamiyat foyda ko'rish yoki ko'rmasligidan qat'iy nazar, muayyan Dividendlarni qabul qilib olish.

5.8. Aksiyalarga qo'yilgan cheklov. Aksiyalar faqat Aksiyadorlik Sharfnomasiga muvofiq o'tkaziladi va o'tkazilishi mumkin.

6-MODDA. DAROMADI (FOYDANI) TAQSIMLASH, DIVIDENDLARNI TO'LASH

6.1. Daromadlarni taqsimlash. Jamiyat o'zining xo'jalik faoliyati natijasida ko'rgan Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng qolgan foydasi Jamiyat ixtiyorida qolib, Amaldagi Qonun Hujjatlari, ushbu Ustav va Dividend To'lash Siyosatiga muvofiq tegishli fondlar tashkil etish, qayta investitsiya qilish va Dividendlar to'lash uchun sarflanadi.

6.2. Dividend. Foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan va Zaxira Fondiga ajratmalar o'tkazilganidan so'ng Jamiyat ixtiyorida qoladigan va Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismi dividend ("Dividend") hisoblanadi.

6.3. Dividendlar shakli. Umumiy Yig'ilish qaroriga binoan Dividend so'mda e'lon qilinib, pul mablag'lari yoki Amaldagi Qonun Hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa vositalar bilan to'lanishi mumkin. Dividend Aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli Aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

6.4. Dividend miqdori. Yillik va oraliq (choraklik, yarim yillik) Dividend to'lash Umumiy Yig'ilish qarori bilan Dividend To'lash Siyosati qoidalarini hisobga olgan holda belgilanadi, Aksiyadorlarga Jamiyat foydaga ega yoki ega emasligidan qat'iy nazar birinchi maxbatda to'lanadigan Imtiyozli Aksiyalar bo'yicha Dividendlar bundan mustasno.

6.5. Dividendlar to'lash tartibi. Yillik va oraliq Dividendlar to'lash tartibi va muddati Umumiy Yig'ilish qarorida ushbu Ustav va Amaldagi Qonun Hujjatlarining talablarini hisobga olgan holda belgilanadi; *shu shart bilanki*, agar biron-bir Dividendlarni e'lon qilish va to'lash Amaldagi Qonun Hujjatlarida taqiqlangan bo'lsa, Jamiyat bunday Dividendlarni e'lon ham qilmaydi, to'lamaydi ham. Yillik va oraliq Dividendlarni to'lash sanasi bu haqda qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo'imasligi lozim.

6.6. To'lash shartlari.

6.6.1 Kuzatuv Kengashi Umumiy Yig'ilishga Dividendlarning miqdori va shaklini

taklif etadi, Umumiy Yig'ilish esa **6.4-bandga** muvofiq tegishli o'tgan davr natijalari bo'yicha Dividendlar to'lash haqida tegishli qaror qabul qiladi. Har bir Aksiyador har bir Aksiya bo'yicha Umumiy Yig'ilish e'lon qilgan miqdorda Dividend olishga haqli.

6.6.2 Jamiyat O'zbekiston Respublikasi no-rezident Aksiyadorining unga hisoblangan Dividendlarni Erkin Almashtiriladigan Valyutadagi mablag'larni ushbu Aksiyadorning bank hisob-varag'iga o'tkazib berishi shart.

6.6.3 Jamiyat biron-bir Dividendlarni to'lashni kafolatlamaydi, Imtiyozli Aksiyalar bo'yicha Dividendlar bundan mustasno.

6.7. Dividendlar to'g'risida xabar. Jamiyat to'lanadigan Dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qoq'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatlari davlat organining va Jamiyatning rasmiy veb-saytlarida Amaldagi Qonun Hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

6.8. Zararlar. Jamiyat faoliyati davomida ko'riliishi mumkin bo'lgan har qanday zararlar, agar Umumiy Yig'ilish boshqa manba topmasa, Zaxira Fondi yoki Jamiyatning shu maqsadlarda tashkil etilgan boshqa fondlari hisobidan qoplanadi.

6.9. Boshqaruv organlarining javobgarligi. Kuzatuv Kengashi a'zolari va Boshqaruv a'zolari Amaldagi Qonun Hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat oldida javobgardir.

6.10. Istisnoli mas'uliyat. Ayni paytda Jamiyatga zarar keltirishga sababchi bo'lgan qarorga ovoz berishda qatnashmagan yoki bunday qarorga qarshi ovoz bergen Kuzatuv Kengashi a'zolari va Boshqaruv A'zolari javobgar bo'lmaydi.

6.11. Solidar javobgarlik. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar hisoblanadi.

7-MODDA. ZAXIRA FONDINI TASHKIL ETISH TARTIBI

7.1. Zaxira Fondi. Jamiyat sof foyda hisobiga zaxira fondini tashkil etadi ("Zaxira Fondi").

7.2. Miqdori va ishlatalishi. Zaxira fondi Ustav Fondining o'n besh foizi (15%) miqdorida tuziladi. Zaxira Fondining miqdori Kuzatuv Kengashining qaroriga binoan Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Boshqa fondlar mavjud bo'limgan taqdirda, Zaxira Fondi Jamiyatning zararlarini qoplash, Jamiyat korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, Imtiyozli Aksiyalar bo'yicha Dividendlar to'lash va Aksiyalarni qaytarib sotib olish uchun sarflanadi. Zaxira Fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

7.3. Tuzish. Jamiyat Zaxira Fondi Ustav Fondining o'n besh foizini (15%) tashkil etmagunga qadar unga har yili o'zining sof foydasidan besh foizdan (5%) kam bo'limgan miqdorida majburiy ajratmalar o'tkazadi.

7.4. Ajratmalar o'tkazishni qaytadan boshlash. Zaxira Fondi to'la yoki qisman sarflansa, unga majburiy ajratmalar o'tkazish yangidan boshlanadi.

7.5. Boshqa fondlar. Kuzatuv Kengashi o'zi Jamiyatning faoliyati uchun kerakli yoki ma'qul deb topgan boshqa fondlarni tuzishi mumkin. Kuzatuv Kengashi bunday fondlarga o'tkazilajak ajratmalarning miqdorini va vaqtini belgilaydi. Jamiyatning har qanday boshqa

fondlarini ishlatish maqsadlari va tartibi Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilanadi.

8-MODDA. AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA BURCHLARI

8.1. Aksiyadorlarning huquqlari. Har bir Aksiyador quyidagi huquqlarga ega:

- 8.1.1 Aksiyadorlar Reyestriga kiritilish;
- 8.1.2 foydaning bir qismini Aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan Dividendlar yoki boshqa taqsimotlar tarzida olish;
- 8.1.3 olgan Dividendlarni erkin tasarruf etish;
- 8.1.4 Markaziy Depozitariydagи depo hisob-varag'idan ko'chirmalar olish;
- 8.1.5 ushbu Ustav hamda Aksiyadorlik Shartnomasining talablariga muvofiq Umumiy Yig'ilish, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruv orqali Aksiyador sifatida Jamiatni boshqarishda ishtirok etish;
- 8.1.6 ushbu Ustav hamda Aksiyadorlik Shartnomasining talablariga muvofiq Umumiy Yig'ilishda shaxsan yoki yozma ishonch qog'oziga binoan ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish va Umumiy Yig'ilishga ko'rib chiqishi uchun takliflar kiritish;
- 8.1.7 ushbu Ustav hamda Aksiyadorlik Shartnomasiga muvofiq Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvga a'zolar nomzodini ko'rsatish va saylash;
- 8.1.8 ushbu Ustav talablariga muvofiq Umumiy Yig'ilishning hamda Kuzatuv Kengashi yig'ilishlarining bayonnomalari nusxasini olish;
- 8.1.9 Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq Jamiatdan o'zining Kuzatuv Kengashi yoki Boshqaruvdagи vakillari orqali Jamiatning yillik buxgalterlik balansidan, yillik foya va zararlar hisobotidan nusxa, shuningdek, agar kerak bo'lса, Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish;
- 8.1.10 Jamiatning asbob-uskunalarini, omborlari va binolarini ularning texnik holati va xavfsizligini baholash maqsadida tekshirish, ekologik taftish hamda atrof-muhit holatini nazorat qilish, shuningdek boshqa ishlab-chiqarish monitoringini olib borish bo'yicha huquqlarni har qanday paytda (o'zining vakolatli vakillari orqali) amalga oshirish;
- 8.1.11 Jamiat tugatilgan taqdirda uning kreditorlariga tegishli pullar to'langanidan so'ng o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- 8.1.12 qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- 8.1.13 Jamiatning qimmatli qog'ozlarini sotib olish vaqtida zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'ortalash;
- 8.1.14 chet ellik Aksiyadorlar tomonidan Dividendlarni Erkin Almashtiriladigan Valyutada olishi va bunday Dividendlarni Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidan tashqariga o'tkazishi;
- 8.1.15 Aksiyadorga ushbu Ustavda va Aksiyadorlik Shartnomasida berilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish; va
- 8.1.16 Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning 26, 27, 28, 35 va 36-moddalarida nazarda tutilgan yoki Amaldagi Qonun Hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega.

28.

8.2. Aksiyalar bo'yicha huquqlar. Har bir Aksiya uning egasi bo'lmish Aksiyadorga 5.6-band va 5.7-bandlarda aytilgan bir hil hajmda huquqlar beradi.

8.3. Aksiyadorlarning burchlari. Aksiyadorlarning burchlari quyidagilardan iborat:

8.3.1 Aksiyalar uchun to'lovnini Amaldagi Qonun Hujjalari, ushbu Ustavda va Aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorlarda belgilangan muddatda va tartibda to'lash;

8.3.2 ushbu Ustav va Aksiyadorlik Sharhnomasining qoidalariga rioya qilish;

8.3.3 Jamiatning faoliyatiga taalluqli masalalarni sir saqlash;

8.3.4 Jamiatning xo'jalik faoliyati foyda keltirishini ta'minlash maqsadida uning faoliyatini jadallashtirish;

8.3.5 o'zining Ustavda va Aksiyadorlik Sharhnomasida belgilangan majburiyatlarini bajarish uchun barcha kerakli qarorlarni qabul qilish, jumladan Umumi Yig'ilishda ovoz berish;

8.3.6 Aksiyadorlik Sharhnomasi va Amaldagi Qonun Hujjalariغا muvofiq boshqa Aksiyadorlarning Kuzatuv Kengashi hamda Boshqaruv a'zoligiga ko'rsatgan nomzodlari yuzasidan ovoz berish.

8.4. Cheklangan mas'uliyat. Hech bir Aksiyador, agar yozma ravishda aniq bunday majburiyatni olgan bo'lmasa, Jamiatning qarzlari yoki majburiyatlarini bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Aksiyadorlar Jamiatning faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun faqat o'zlariga tegishli Aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladi, Aksiyadorlik jamiatlari to'g'risidagi qonunning 4-moddasida ko'zda tutilgan hollar, agar tegishli bo'lsa, bundan mustasno. Har bir Aksiyadorning Jamiat oldidagi majburiyati, agar bunday Aksiyador aniq yozma ravishda qandaydir qo'shimcha majburiyat olgan bo'lmasa, tegishli Aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida cheklanadi. Hech bir Aksiyador boshqa Aksiyador nomidan harakat qilishga yoki biron-bir majburiyat yo javobgarlik olishga haqli emas. O'zbekiston Respublikasi, agar aniq yozma ravishda bunday majburiyatni olgan bo'lmasa yoki Amaldagi Qonun Hujjalariда boshqa xol nazarda tutilgan bo'lmasa, Aksiyadorlarning majburiyatlarini bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

9-MODDA. JAMIYATNI BOSHQARUV VA NAZORAT ORGANLARI

9.1. Boshqarish strukturasi. Jamiatni boshqaruvchi organlari quyidagilardan iborat:

9.1.1 oliy boshqarish organi - Umumi Yig'ilish;

9.1.2 kuzatuv kengashi - Kuzatuv Kengashi; va

9.1.3 kollegial ijroiya organ - Boshqaruv.

9.2. Jamiatning nazorat organlari: Jamiatni nazorat organlari quyidagilardan iborat:

9.2.1 Taftish Komissiyasi;

9.2.2 ichki audit xizmati.

10-MODDA. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi ("Umumi Yig'ilish") Jamiatning oliy boshqarish organidir.

Y. Sh.

10.2. Ovoz berish. Umumiy Yig'ilish qarorlari ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi Aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, 10.5-bandda aytilgan masalalar yuzasidan qarorlar bundan mustasno. Aksiyadorlar har bir Umumiy Yig'ilishda ovozlarni sanash uchun Kuzatuv Kengashi tomonidan tuzilgan sanoq komissiyasini tasdiqlaydilar.

10.3. Umumiy Yig'ilishning majburiyligi. Jamiyat har yili Umumiy Yig'ilish (navbatdagi yillik Umumiy Yig'ilishi) o'tkazishi shart.

10.4. Umumiy Yig'ilishni o'tkazish. Umumiy hisobot Yig'ilishi har yili Moliya Yili tugaganidan keyin ko'pi bilan 6 (olti) oy ichida o'tkaziladi. Umumiy hisobot Yig'ilishida Yillik Moliya Hisoboti va Yillik Boshqaruv Hisoboti, shuningdek Amaldagi Qonun Hujjatlari ko'zda tutilgan boshqa masalalar majburiy tartibda ko'rib chiqiladi. Yillik Umumiy hisobot Yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan Aksiyadorlar yig'ilishlari navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilish hisoblanadi. Umumiy Yig'ilish kun tartibiga kiritilmagan masalalar yuzasidan qaror qabul qilishi mumkin emas.

10.5. Ixtisosli ovoz berish. 10.8.1-10.8.5, 10.8.10-10.8.13 va 10.8.16-10.8.19-bandlarda ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qaror Umumiy Yig'ilish tomonidan Umumiy Yig'ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmissiz Aksiyadorlarning 3/4 (to'rtdan uch) qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

10.6. Kuzatuv Kengashining taklifi. Jamiyat Ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash, Jamiyatning mol-mulk sotib olishi va mol-mulkini tasarrufdan chiqarish bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish hamda Dividendlarni e'lon qilish bo'yicha qaror Umumiy Yig'ilish tomonidan faqat Kuzatuv Kengashining taklifiga binoan qabul qilinadi.

10.7. Umumiy Yig'ilishni chaqirish. Umumiy Yig'ilish o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida Aksiyadorlarga xabar berish tartibi, Umumiy Yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida Aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro'yxatini Kuzatuv Kengashi Amaldagi Qonun Hujjatlariiga muvofiq belgilaydi. Agar Kuzatuv Kengashi Umumiy Yig'ilishni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilsa, ushbu qaror to'g'risidagi axborot Kuzatuv Kengashi Raisi tomonidan Boshqaruvga Kuzatuv Kengashi majlisi o'tkazilgan kuni yuboriladi.

10.8. Umumiy Yig'ilishning vakolatlari. Umumiy Yig'ilishning mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

10.8.1 ushbu Ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

10.8.2 Jamiyatni qayta tashkil etish;

10.8.3 Jamiyatni tugatish, uning faoliyatini to'xtatish yoki uni qarzini to'lay olmaydi deb e'lon qilish, Tugatish Komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy Tugatish Balanslarini tasdiqlash;

10.8.4 Kuzatuv Kengashining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

10.8.5 e'lon qilingan Aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

10.8.6 Ustav Fondini kamaytirish;

10.8.7 o'z Aksiyalarini qaytarib sotib olish;

- 10.8.8** Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- 10.8.9** Taftish Komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;
- 10.8.10** Mustaqil Auditorni va unga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini tasdiqlash;
- 10.8.11** Jamiyatning Yillik Moliya Hisobotlarini va Yillik Boshqaruv Hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zarar hisobvarag'ini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;
- 10.8.12** Dividend To'lash Siyosatini tasdiqlash yoki o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 10.8.13** Dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish;
- 10.8.14** Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda Aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
- 10.8.15** Umumiy Yig'ilish reglamentini va uning nizomini tasdiqlash;
- 10.8.16** Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning 8- va 9-boblariga muvofiq Jamiyat tomonidan biron-bir Aksiyador manfaatdor bo'lgan bitimning tuzilishi, Kuzatuv Kengashi ma'qullay oladigan bitimlar bundan mustasno;
- 10.8.17** qaror qabul qilingan sanada Jamiyat sof aktivlari qiymatining ellik foizidan (50%) ortiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni Jamiyatning olishi yoki tasarrufidan chiqarishi bilan bog'liq yoxud Jamiyat bevosita yoki bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bir yoki o'zaro bog'liq bir necha bitimlar (odatiy ish jarayonida tuzilgan bitimlar bundan mustasno) yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 10.8.18** qiymati Jamiyat sof aktivlari qiymatining ellik foizidan (50%) ko'prog'ini tashkil etuvchi har qanday Jamiyat aktivlarini begonalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 10.8.19** Jamiyatning biron-bir yer uchastkasini sotib olish yoki o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish (yer uchastkalarini Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq musodara qilish bundan mustasno); va
- 10.8.20** ushbu Ustavda va Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

10.9. Vakolatlarni topshirish. Umumiy Yig'ilishning mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Kuzatuv Kengashi yoki Boshqaruvga berilishi mumkin emas. Umumiy Yig'ilish tegishli masala yuzasidan ovoz berish huquqiga ega bo'lgan Aksiyadorlarning bir ovozdan qabul qilgan qaroriga binoan Amaldagi Qonun Hujjatlarida belgilangan talablari asosida o'zining ayrim vakolatlarini Kuzatuv Kengashiga topshirishi mumkin. Bunday topshirilgan vakolatlarni bekor qilish uchun shu masala yuzasidan ovoz berishga haqli bo'lgan Aksiyadorlar buni bir ovozdan ma'qullashi lozim. Topshirilgan huquqlar asosida amalga oshirilgan har qanday harakatning haqiqiyligiga hech qanday bekor qilish bu haqda qaror qabul qilinmagunga qadar ta'sir qilmaydi.

10.10. Muxtor vakil. Aksiyador Umumiy Yig'ilishda shaxsan yoki o'z vakili orqali ishtiroy etishi mumkin, bunday vakil belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va uning haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozma ishonchnoma asosida harakat qiladi. Aksiyador

istagan payida o'zining Umumiy Yig'ilishdagi vakilini o'tmini olib, unda o'zi shaxsan ishtirok etishi mumkin.

10.11. Yig'ilish to'g'risida xabar. Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun va ushbu band talablariga muvofiq, Kuzatuv Kengashining Raisi Umumiy Yig'ilishni o'tkazish to'g'risida xabarnoma tayyorlab, uni har bir Aksiyadorga Aksiyadorlar Reyestrida ko'rsatilgan manzilga yuboradi hamda bunday xabarnomani ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishini tashkil etadi.

10.12. Umumiy Yig'ilish to'g'risida xabarni yuborish muddati. Umumiy Yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida Aksiyadorlarga yozma xabar yuborish muddati Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilanadi.

10.13. Xabar mazmuni. Umumiy Yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar o'z ifodasini topishi lozim:

10.13.1. Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

10.13.2. Umumiy Yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

10.13.3. Aksiyadorlar Reyestri shakllantiriladigan sana;

10.13.4. Umumiy Yig'ilish kun tartibga kiritilgan masalalar;

10.13.5. Umumiy Yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda Aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan Aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

10.14. Umumiy Yig'ilish materiallari. Kuzatuv Kengashi kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan axborot (materiallar) tayyorlab Aksiyadorlarga yuboradi. Umumiy Yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda Aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Yillik Moliya Hisoboti, Yillik Boshqaruv Hisoboti, Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatini yillik tekshirish natijalari yuzasidan Taftish Komissiyasining va Mustaqil Auditorning xulosasi, Kuzatuv Kengashiga va Taftish Komissiyasiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyat Ustaviga kiritiladigan o'zgartishlar va qo'shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi, joriy Moliya Yiliga taftish tekshiruvini o'tkazish uchun Mustaqil Auditor tayinlash va unga to'lanajak haq bo'yicha taklif, Jamiyatning yillik buxgalteriya balanslari, foyda va zararlari hisobvaraqlari, shuningdek yillik Dividendlarni va Jamiyatning zararlarini taqsimlash bo'yicha takliflar kiradi.

10.15. Qo'shimcha materiallar. Umumiy Yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda Aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborot (materiallar) ro'yxati davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va muvofiqlashtirish yuzasidan vakolat berilgan organ tomonidan belgilab qo'yilishi mumkin.

10.16. Kun tartibiga takliflar kiritish. Aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga (1%) ega bo'lgan Aksiyadorlar Moliya Yili tugaganidan keyin uzog'i bilan 3 (uch) oy ichida yillik Umumiy hisobot Yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Kuzatuv Kengashi va Taftish Komissiyasiga bu organning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

10.17. Taklif shakli. Umumiy Yig'ilishning kun tartibiga masala uni qo'shish sabablarini, masalani taklif etayotgan Aksiyadorning nomini, unda tegishli Aksiyalarning soni va turini ko'rsatgan holda yozma ravishda kiritiladi.

10.18. Nomzodlar haqidagi taklifning mazmuni. Kuzatuv Kengashi va Taftish Komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish, shu jumladan, o'zining nomzodini ko'rsatish to'g'risida taklif kiritilganda nomzodning ismi (basharti nomzod Aksiyador bo'lsa), unga tegishli Aksiyalarning soni va turi, shuningdek nomzodni ko'rsatgan Aksiyadollarning ismi, ularga tegishli Aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

10.19. Takliflarni ko'rib chiqish. Kuzatuv Kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda 10.16-bandda belgilangan muddat tugaganidan so'ng uzog'i bilan 10 (o'n) kun ichida ularni Umumiyl Yig'ilish kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyadollar kiritgan masala Umumiyl Yig'ilishning kun tartibiga, shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Kuzatuv Kengashi va Taftish Komissiyasiga saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

10.19.1 Aksiyador 10.16-bandda belgilangan muddatga rioxha etmagan bo'lsa;

10.19.2 Aksiyador 10.16-bandda nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi Aksiyalarning egasi bo'lmasa;

10.19.3 10.18-bandda nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

10.19.4 takliflar Amaldagi Qonun Hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmasa.

10.20. Taklifni rad etish. Kuzatuv Kengashining masalani Umumiyl Yig'ilishning kun tartibiga yoki nomzodni Kuzatuv Kengashi va Taftish Komissiyasiga saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi dalil-isbotli qarori ana shu masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan Aksiyadorga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uzog'i bilan 3 (uch) kun ichida yuboriladi.

10.21. Umumiyl Yig'ilish natijalari haqida xabar. Umumiyl Yig'ilishda qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari bunday qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 10 (o'n) kundan kechikmagan holda Aksiyadollar e'tiboriga yetkaziladi. Agar Aksiyador uzrli sabablarga ko'ra Umumiyl Yig'ilishda ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergen bo'lsa, u Umumiyl Yig'ilishda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

10.22. Shikoyat qilish huquqi. Kuzatuv Kengashining masalani Umumiyl Yig'ilishning kun tartibiga yoki nomzodni Kuzatuv Kengashi yoki Taftish Komissiyasiga saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin.

10.23. Navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilish. Navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilish Kuzatuv Kengashining qarori bilan uning o'z tashabbusiga binoan, Taftish Komissiyasi talabiga ko'ra, shuningdek talab taqdim etilgan sanada ovoz beruvchi Aksiyalarning kamida besh foiziga (5%) ega bo'lgan Aksiyadorning talabi bilan o'tkaziladi.

10.24. Navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilishni chaqirish. Taftish Komissiyasining yoki ovoz beruvchi Aksiyalarning kamida besh foiziga (5%) ega bo'lgan Aksiyadorning talabiga binoan navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilishni chaqirishni Kuzatuv Kengashi navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilishni o'tkazish haqidagi talab taqdim etilgan paytdan e'tiboran uzog'i bilan o'ttiz (30) kun ichida amalga oshiradi.

10.25. Navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilishni o'tkazish talabi. Navbatdan tashqari

Umumiy Yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sababini ko'rsatgan holda ta'riflab berilmog'i lozim.

10.26. Kun tartibining o'zgarmasligi. Kuzatuv Kengashi Taftish Komissiyasining yoki ovoz beruvchi Aksiyalarning kamida besh foiziga (5%) ega bo'lgan Aksiyadorning talabiga binoan chaqiriladigan navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilish kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

10.27. Aksiyadorning yig'ilish chaqirish haqidagi talabi. Navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirish talabi Aksiyadordan chiqqan taqdirda bu talabda Umumiy Yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan Aksiyadorning ismi (nomi), unga tegishli Aksiyalarning soni va turi (hili) ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

10.28. Talabnomani imzolash. Navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirish talabnomasi navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirishni talab qilgan shaxs tomonidan imzolanadi.

10.29. Chaqirish tartibi. Taftish Komissiyasi yoki ovoz beruvchi Aksiyalarning kamida besh foiziga (5%) ega bo'lgan Aksiyador navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnomma taqdim etgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida Kuzatuv Kengashi navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirish yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim.

10.30. Chaqirishni rad etish. Taftish Komissiyasining yoki ovoz beruvchi Aksiyalarning kamida besh foiziga (5%) ega bo'lgan Aksiyadorning talabiga binoan navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, basharti:

10.30.1 navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan Aksiyador 10.23-bandda nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi Aksiyalarning egasi bo'lmasa;

10.30.2 navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilish kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham uning vakolatlariga kirmasa;

10.30.3 kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala Amaldagi Qonun Hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lmasa; va

10.30.4 Amaldagi Qonun Hujjatlari va ushbu Ustavda belgilangan Umumiy Yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabni taqdim etish tartibiga rioya qilinmagan bo'lsa.

10.31. Chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish muddati. Kuzatuv Kengashining navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishini chaqirishni rad etish haqidagi dalil-isbotli qarori qabul qilingan kundan e'tiboran uzog'i bilan 3 (uch) kun ichida Kuzatuv Kengashining Raisi tomonidan yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga yuboriladi.

10.32. Rad etish to'g'risidagi qarori ustidan shikoyat qilish. Kuzatuv Kengashining navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

10.33. Navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishning majburiyligi. Kuzatuv Kengashi Umumiy Yig'ilishni chaqirish to'g'risida talab tushgan sanadan boshlab 10.29-bandda ko'rsatilgan 10 (o'n) kun ichida navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan bo'lsa yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan bo'lsa,

navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilish uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin.

10.34. Navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilish xarajatlari. Navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilish 10.33-bandga muvofiq chaqirilsa, uni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq xarajatlar Jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

10.35. Aksiyalarga birgalikda egalik qilish. Agar Aksiya bir necha shaxslarning umumiyligi ulushli mulki bo'lsa, Umumiy Yig'ilishda ovoz berish vakolati ularning xohishiga ko'ra umumiyligi ulushli mulk qatnashchilaridan biri yoki ularning umumiyligi vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiy lashtirilishi kerak.

10.36. Kvorum. Jamiatning tarqatilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi Aksiyalarining jami oltmis foizidan (60%) ko'piga ega bo'lgan Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan bo'lsa va Umumiy Yig'ilishda ishtirok etayotgan bo'lsa, Umumiy Yig'ilish vakolatlari hisoblanadi.

10.37. Umumiy Yig'ilishni boshqa vaqtga ko'chirish. Umumiy Yig'ilishni o'tkazish uchun belgilangan vaqtidan boshlab 3 (uch) soat ichida kvorum yig'ilmasa, Kuzatuv Kengashining Raisi yangi Umumiy Yig'ilishni o'tkazish sanasini e'lon qiladi. Yangi Umumiy Yig'ilishni o'tkazishda kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

10.38. Qayta chaqirilgan Umumiy Yig'ilishda kvorum. Tarqatilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi Aksiyalarining jami oltmis foizidan (60%) kam bo'lмаган qismiga ega bo'lgan Aksiyadorlar qayta chaqirilgan Umumiy Yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan bo'lsa va unda ishtirok etayotgan bo'lsa, o'tkazilmay qolgan yig'ilish o'rniqa qayta chaqirilgan Umumiy Yig'ilish vakolatlari hisoblanadi.

10.39. Xabar qilish muddati. Qaytadan chaqirilgan Umumiy Yig'ilishni o'tkazish to'g'risida xabar qilish Aksiyadorlik jamiatlari to'g'risidagi qonunining 62-moddasida hazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

10.40. Qayta chaqirilgan Umumiy Yig'ilishda ishtirok etish. Qayta chaqirilgan Umumiy Yig'ilish o'tkazilmay qolgan yig'ilish sanasidan keyin 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, Umumiy Yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan Umumiy Yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Aksiyadorlarning ro'yxatiga muvofiq aniqlanadi.

10.41. Ovoz berish tartibi. Umumiy Yig'ilishda ovoz berish "Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasiga bitta ovoz" qoidasiga muvofiq ovoz berish bulletenlari orqali o'tkaziladi, Kuzatuv Kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berish bilan o'tkazish va Amaldagi Qonun Hujjatlarining talablariga ko'rsatilgan hollari bundan mustasno. Ushbu Ustavning qoida va shartlariga muvofiq Umumiy Yig'ilishda ovoz berish huquqiga ega har bir Aksiyador uning nomiga Aksiyadorlar Reyestrida qayd etilgan har bir Aksiya bo'yicha 1 (bitta) ovozga ega. Aksiyalarga egalik qiluvchi Aksiyadorlarga Umumiy Yig'ilishda ishtirok etishga va ovoz berishga haqli.

10.42. Bayonnomasi. Umumiy Yig'ilishning bayonnomasi Umumiy Yig'ilish yopilganidan keyin kechi bilan 10 (o'n) kun ichida tuziladi. Umumiy Yig'ilishning bayonnomasi Aksiyadorlik jamiatlari to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq 2 (ikki) nusxada ham

o'zbek/rus tilida, ham ingliz tilida tayyorlanadi. Bayonnomaning barcha tildagi nusxalari teng kuchga ega. Bayonnomaning barcha nusxalari Umumiy Yig'ilishning raisi va kotibi hamda har bir Aksiyador tomonidan imzolanib, Umumiy Yig'ilishning haqiqiy va qonuniy bayoni bo'lib xizmat qiladi.

10.43. Bayonnomaning mazmuni. Umumiy Yig'ilishning bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 10.43.1 Umumiy Yig'ilish o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- 10.43.2 ovoz beruvchi Aksiyalarga ega bo'lgan Aksiyadorlar ovozlarining umumiy soni;
- 10.43.3 Umumiy Yig'ilishda ishtirok etgan Aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlar soni;
- 10.43.4 Umumiy Yig'ilishning raisi va kotibi; Umumiy Yig'ilishning kun tartibi;
- 10.43.5 ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish natijalari;
- 10.43.6 qabul qilingan qarorlar.

10.44. Umumiy Yig'ilish o'tkaziladigan joy. Umumiy Yig'ilish O'zbekiston hududida yoki uning tashqarisida o'tkazilishi mumkin; *shu shart bilanki*, agar u O'zbekistondan tashqarida o'tkazilsa, Jamiyat unda ishtirok etayotgan Aksiyadorlarning (yoki ularning vakolatli vakillarining) barcha asosli komandirovka va boshqa ish yuzasidan ko'rilgan xarajatlarini qoplaydi.

10.45. Aloqa vositalari yordamida ishtirok etish. Aksiyador Umumiy Yig'ilishda telefon yoki boshqa aloqa vositalari yordamida ishtirok etishi mumkin, bunda har bir Aksiyador boshqa Aksiyadorlarni eshitma olishi va ular bilan kun tartibidagi masalalarni muhokama qila olishi kerak. Telefon yoki boshqa aloqa vositasi yordamida o'tkazilgan Umumiy Yig'ilish raislik qilayotgan shaxs bunday joyda butun yig'ilish davomida hozir bo'lishi sharti bilan Kuzatuv Kengashi Raisi bilan kelishilgan joyda o'tkazilgan hisoblanadi.

10.45. Rais. Umumiy Yig'ilishda Kuzatuv Kengashining Raisi yoki, agar Kuzatuv Kengashining Raisi ishtirok etmayotgan bo'lsa, Umumiy Yig'ilishda oddiy ko'pchilik ovozi bilan unda ishtirok etayotgan Aksiyadorlar orasidan tanlangan shaxs rahbarlik qiladi. Umumiy Yig'ilishda raislik qilayotgan shaxs, agar bunga yozma ravishda ruxsat berilgan bo'lmasa, na Kuzatuv Kengashiga, na Boshqaruvga mustaqil ravishda majburiy ko'rsatmalar berishga haqli emas.

11-MODDA. KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI

11.1. Kuzatuv Kengashi. Umumiy Yig'ilishlar oralig'idagi vaqt mobaynida Aksiyadorlar vakillaridan tuzilgan kuzatuv kengashi ("Kuzatuv Kengashi") Aksiyadorlarning manfaatlarini ifoda etadi, Jamiat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, Jamiat faoliyatining va ishlarining barcha jihatlarini tekshirish va nazorat qilish huquqi va vakolatlariga ega, Amaldagi Qonun Hujjatlar va ushbu Ustav bilan Umumiy Yig'ilishning mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

11.2. Tarkibi. Kuzatuv Kengashi 7 (yettita) jismoniy shaxsdan iborat bo'lib, ular 1 (bir) yilga sayylanadi. Kuzatuv Kengashiga saylanadigan 4 (to'rtta) jismoniy shaxsning nomzodini O'zKimyoSanoat ko'rsatadi, 3 (uchtasini) esa MaxamCorp ko'rsatadi.

11.3. Badal. Umumiy Yig'ilishning qaroriga binoan Kuzatuv Kengashi a'zolariga ular o'z

vazifalarini bajarib turgan davrda badal to'lanishi va/yoki Kuzatuv Kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va/yoki to'lovlarning miqdori Umumiy Yig'ilish qarori bilan belgilab qo'yiladi.

11.4. Vakolatlar. Kuzatuv Kengashi quyidagilarga haqli:

- 11.4.1 Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- 11.4.2 yillik va navbatdan tashqari Umumiy Yig'ilishlarni chaqirish, Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- 11.4.3 Umumiy Yig'ilishning kun tartibini tayyorlash;
- 11.4.4 Umumiy Yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Aksiyadorlarning ro'yxati tuziladigan sanani belgilash;
- 11.4.5 (a) ushbu Ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, va (b) taftish tekshiruvini o'tkazish, Mustaqil Auditorni va unga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash masalalari yuzasidan takliflar tayyorlash va Umumiy Yig'ilish muhokamasiga kiritish;
- 11.4.6 yillik Umumiy Yig'ilishgacha Jamiatning Yillik Moliya Hisobotini va Yillik Boshqaruv Hisobotini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zarar hisobvarag'ini hamda zararlar miqdorini ma'qullash;
- 11.4.7 Ustav Fondini ko'paytirish savollari hamda shunday ko'paytirish bilan bog'liq qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish qarorlari;
- 11.4.8 Jamiyat obligatsiyalarini va qimmatli qog'ozlarini joylashtirish;
- 11.4.9 Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatimi aniqlashni tashkil etish;
- 11.4.10 Jamiyat joylashtirgan Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- 11.4.11 Boshqaruv tomonidan tayyorlangan Yillik Biznes-Rejani tasdiqlash;
- 11.4.12 Amaldagi Qonun Hujjalarda belgilangan tartibga binoan Boshqaruv faoliyatiga taalluqli bo'lgan har qanday hujjalardan foydalanish va o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida undan bunday hujjalarni olish;
- 11.4.13 Boshqaruv a'zolarini tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish va ular bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish;
- 11.4.14 Boshqaruv a'zolari bilan Jamiyat nomidan mehnat shartnomalari tuzish;
- 11.4.15 Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq va badallar miqdorini belgilash;
- 11.4.16 Taftish Komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va badallar miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;
- 11.4.17 Dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- 11.4.18 Zaxira Fondidan foydalanish hamda Jamiatning boshqa fondlarini tuzish va ulardan foydalanish;
- 11.4.19 Jamiatni boshqarish organlari faoliyat tartibini belgilab beruvchi hujjalarni tasdiqlash, Umumiy Yig'ilish nizomi bundan mustasno;
- 11.4.20 Umumiy Yig'ilishda ovoz berish bulletenlarining shakli va mazmunini tasdiqlash;

- 11.4.21 Jamiyatning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish;
- 11.4.22 Jamiyatning ma'suliyati cheklangan jamiyat shakldagi yoki aksiyadorlik jamiyati shaklida sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;
- 11.4.23 Aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarning hisobini yuritish uchun qimmatli qog'ozlar depozitariysini tayinlash;
- 11.4.24 ishlab chiqarish jarayonida yoki u bilan bog'liq ravishda kerakli bo'lgan balans qiymati 200.000 (ikki yuz ming) AQSh Dollarining ekvivalentidan oshiq Jamiyatga tegishli mashinalarni, asbob-uskunalarini yoki boshqa aktivlarni (O'zKimyoSanoat Guruhi tarkibidagi korxonalarga sotilishi lozim bo'lgan Jamiyatning tayyor mahsulotlari va hom ashyosi bundan mustasno) tasarrufdan chiqarish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- 11.4.25 qaror qabul qilingan sanada Jamiyat aktivlari sof aktivlari miqdorining o'n besh foizdan (15%) ellik foizigacha (50%) qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni Jamiyatning olishi yoki tasarrufidan chiqarishi bilan bog'liq yoxud Jamiyat bevosita yoki bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bir yoki o'zaro bog'liq bir necha bitimlar (odatiy ish jarayonida tuzilgan bitimlar bundan mustasno) yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 11.4.26 Aksiyadorlik jamiyatlarini to'g'risidagi qonunning 9-bobiga muvofiq manfaatdorlik bo'lgan bitimlarning tuzilishi to'g'risida, agar bunday bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish Umumiy Yig'ilish vakolatida bo'lmasa, qarorlar qabul qilish; va
- 11.4.27 Aksiyadorlik jamiyatlarini to'g'risidagi qonunga muvofiq va ushbu Ustavda Kuzatuv Kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal etish.

11.5. Ichki audit xizmati. Kuzatuv Kengashi ichki audit xizmatini tashkil etib, sertifikatga ega auditorlarning O'zbekiston qonun hujjatlarida belgilangan sonini uning a'zolari etib 1 (bir) yillik muddatga tayinlaydi. Ichki audit xizmati Aksiyadorlik jamiyatlarini to'g'risidagi qonunning 108-moddasida aytilgan huquqlarga ega bo'ladi.

11.6. Saylash. Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi Umumiy Yig'ilish tomonidan kumulyativ ovoz berish orqali Amaldagi Qonun Hujjatlarida va ushbu Ustavda belgilangan tartibda saylanadi.

11.7. Qayta saylanish. Kuzatuv Kengashiga saylangan shaxslarning qayta saylanishlari cheklanmaydi.

11.8. Nomzodlarga cheklov. Boshqaruv a'zolari hamda Jamiyat bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar Kuzatuv Kengashiga saylanishlari mumkin emas.

11.9. Nomzodlarga ovoz berish. Aksiyador o'ziga tegishli Aksiyalar bo'yicha ovozlarni Kuzatuv Kengashining bitta nomzodiga to'liq berishga yoki bir necha nomzod o'rtasida taqsimlashga haqlidir.

11.10. Saylash senzi. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kuzatuv Kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

11.11. Rais. Kuzatuv Kengashi o'zining raisini ("Kuzatuv Kengashining Raisi") Kuzatuv Kengashining a'zolari orasidan ularning umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv Kengashi Raisining vakolatlari Kuzatuv Kengashining boshqa barcha

a'zolari qaroriga binoan har qanday paytda to'xtatilishi mumkin.

11.12. Yig'ilish vaqtি. Kuzatuv Kengashining yig'ilishlari 3 (uch) oyda bir marta O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida o'tkaziladi.

11.13. Kuzatuv Kengashi Raisining vazifalari. Kuzatuv Kengashining Raisi Kuzatuv Kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, uning ishini tashkil etadi, majlisda bayonnomma yuritilishini tashkil etadi.

11.14. Kuzatuv Kengashining Raisi o'rnini egallash. Kuzatuv Kengashining Raisi yo'qligida yoki uning vakolati muddatidan oldin tugatilsa, uning vazifasini Kuzatuv Kengashi tomonidan tayinlangan uning a'zolaridan bira vaqtinchalik bajarib turadi.

11.15. Kuzatuv Kengashining majlisi. Kuzatuv Kengashining majlisi Kuzatuv Kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, biron-bir Aksiyador, Kuzatuv Kengashining a'zosi, Taftish Komissiyasi va Boshqaruvning, shuningdek ushbu Ustavda belgilab qo'yilgan boshqa shaxslarning talabiga binoan Kuzatuv Kengashi bunday talabni olganidan so'ng uzog'i bilan 15 (o'n besh) kun ichida chaqiriladi.

11.16. Majlis haqida xabar. Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun va ushbu band talablariga muvofiq Kuzatuv Kengashining Raisi Kuzatuv Kengashining majlisi o'tkazilishi haqida xabar tayyorlab uni Kuzatuv Kengashi a'zolariga bunday majlis o'tkaziladigan sanadan kamida 15 (o'n besh) kun oldin yuboradi. Kuzatuv Kengashining majlisi haqidagi har bir xabarga quyidagilar ilova qilinishi lozim:

11.16.1 majlisda ko'rib chiqish uchun qo'yilgan masalalarning tegishli bayoni keltirilgan kun tartibi;

11.16.2 majlisda muhokama qilinadigan har bir hujjatning nusxasi.

11.17. Kun tartibining o'zgarmasligi. Kun tartibiga kiritilmagan masalalar yoki ular bilan bog'liq holda amalga oshirilgan ishlар, agar Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari bunga yozma rozilik bermasalar, Kuzatuv Kengashining majlisida ko'rib chiqilmaydi.

11.18. Kvorum. Kuzatuv Kengashining majlisi (jumladan qoldirilgan majlis) unda Kuzatuv Kengashining oltita (6) a'zosi ishtirok etayotgan bo'lsa vakolatli hisoblanadi. Kuzatuv Kengashi a'zolarining soni oltitadan (6) kamayib qolsa, Kuzatuv Kengashining Raisi Kuzatuv Kengashiga yangi a'zo saylash uchun navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilish chaqirishi shart. Kuzatuv Kengashining qolgan a'zolari faqat navbatdan tashqari Umumiyl Yig'ilishni chaqirish haqida qaror qabul qilishga haqlidir.

11.19. Kvorumning yo'qligi. Majlis boshlanganida yoki biron-bir masala yuzasidan ovoz berish paytda 11.18-bandda ko'rsatilganidek kvorum to'planmagan bo'lsa Kuzatuv Kengashining majlisi hech qanday masalalarni ko'rib chiqolmaydi.

11.20. Majlisni qoldirish tartibi. Agar Kuzatuv Kengashining majlisi haqidagi xabarda belgilangan majlis boshlanishi paytidan e'tiboran 3 (uch) soat ichida kvorum yig'ilmasa, bunday majlis 5 (besh) kunga qoldirilib, uni o'tkazish vaqt va joyi majlisga kelgan Kuzatuv Kengashining a'zolari tomonidan belgilanadi.

11.21. Qoldirilgan majlis. Kuzatuv Kengashining majlisi Kuzatuv Kengashining majlisda ishtirok etayotgan barcha a'zolarining talabi bilan boshqa vaqtga yoki sanaga qoldiriladi.

Bunday talab tushgandan keyin bunday majlisda hech qanday masalalar ko'riliши mumkin emas. Har qanday majlis bir martadan ortiq qoldirilishi mumkin emas.

11.22. Ovoz berish. Kuzatuv Kengashining majlisida qarorlar rezolyutsiya shaklida qabul qilinadi. Qaror uchun ovoz bergenlar soni unga qarshi ovoz bergenlardan ko'p bo'lsa bunday qaror qabul qilingan hisoblanadi, 11.4.1, 11.4.9, 11.4.11, 11.4.21, 11.4.22 va 11.4.24-bandlarda aytilgan masalalar bo'yicha qarorlar bundan mustasno bo'lib, ular yuzasidan qarorlar Kuzatuv Kengashi a'zolarining ko'pchilik oltmis yetti foiz (67%) ovozi bilan qabul qilinadi, shuningdek 11.4.7 - band hamda 11.4.25-bandda aytilgan masalalar ham bundan mustasno bo'lib, ular yuzasidan qarorlar Kuzatuv Kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Kuzatuv Kengashi majlisida qaror qabul qilish paytida Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi 1 (bitta) ovozga ega.

11.23. Nomuvofiqlik. Kuzatuv Kengashining bir a'zosi o'zining ovoz berish huquqini Kuzatuv Kengashining boshqa a'zosiga o'tkazishi mumkin emas.

11.24. Majlis bayonnomasi. Kuzatuv Kengashining har bir majlisida bayonnomma yuritilib, u Aksiyadorlik jamiyatları to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq ham o'zbek/rus tilida, ham ingliz tilida tayyorlanadi. Bayonnomaning barcha matnlari teng kuchga ega. Kuzatuv Kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 11.24.1 majlis o'tkazilgan sana, joy va vaqt;
- 11.24.2 majlisda hozir bo'lган shaxslar;
- 11.24.3 majlisning kun tartibi;
- 11.24.4 ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- 11.24.5 qabul qilingan qarorlar.

11.25. Bayonnomaning to'g'riliği. Kuzatuv Kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etgan har bir Kuzatuv Kengashi a'zosi tomonidan imzolanadi va ular bayonnomma to'g'riliği uchun javobgar bo'lib, bunday imzolashdan so'ng bayonnomma Kuzatuv Kengashi majlisining haqiqiy va qonuniy bayoni bo'lib hisoblanadi.

11.26. Aloqa vositalari yordamida ishtirok etish. Kuzatuv Kengashining a'zolari Kuzatuv Kengashi majlislarida telefon yoki boshqa aloqa vositalari yordamida ishtirok etishi mumkin, bunda majlisda ishtirok etayotgan barcha shaxslar bir-birlarini eshitish olishlari va munozara qila olishlari lozim; *shu shart bilanki*, bunday a'zo o'zining majlis o'tkaziladigan sanada turadigan joyi va chaqirilgan majlisda ishtirok etish niyati haqida Kuzatuv Kengashining Raisini oldindan xabardor qilishi lozim. Telefon yoki boshqa aloqa vositasi yordamida o'tkazilgan majlis raislik qilayotgan shaxs bunday joyda butun majlis davomida hozir bo'lishi sharti bilan Kuzatuv Kengashining Raisi bilan kelishilgan joyda o'tkazilgan hisoblanadi.

11.27. Sirtdan ovoz berish. Agar Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari kechiktirib bo'lmaydigan muayyan bir qarorga bir ovozdan rozilik bergen bo'lsalar, Kuzatuv Kengashi majlis o'tkazish o'miga yozma qaror qabul qilishi mumkin, 11.4.2-11.4.8, 11.4.10, 11.4.11, 11.4.16, 11.4.17, 11.4.20 va 11.4.26-bandlarda aytilgan masalalar bundan mustasno, va bunday qaror Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari tomonidan imzolanib, Kuzatuv Kengashi majlisida qabul qilingan har qanday qaror kabi kuchga ega bo'ladi. Kuzatuv Kengashining Raisi bunday qarorni rasmiylashtirishni Ustavga muvofiq tashkil qiladi.

12-MODDA. JAMIyatNING IJROIYA ORGANI

12.1. Boshqaruv. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish va uni boshqarish Jamiatning kollegial ijroiya organi bo'lmish Boshqaruv ("Boshqaruv") tomonidan amalga oshirilib, u Kuzatuv Kengashi tomonidan uzog'i bilan 1 (bir) yilga tayinlanadigan 8 (sakkizta) a'zodan iborat bo'ladi. Boshqaruv a'zolari Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilangan miqdorda haq olishi mumkin. Boshqaruv kengashining tarkibiga Aksiyadorlik Sharhnomasiga muvofiq aniqlanadigan lavozimlar va shaxslar kiradi. Boshqaruv a'zolarining vakolatlari ushbu Ustavda, Umumi Yig'ilish va Kuzatuv Kengashining qarorlarida hamda ularning har biri bilan tuziladigan mehnat sharhnomalari va amaliy ko'rsatmalarida belgilanadi.

12.2. Huquqlar. Boshqaruv Umumi Yig'ilish va Kuzatuv Kengashining qarorlarini bajaradi, Yillik Biznes-Rejani amalga oshiradi va ushbu Ustav hamda o'zining tasdiqlangan nizomi asosida ish yuritadi. Boshqaruv shuningdek Jamiyatning faoliyatini uchun talab qilingan optimal ish kuchi miqdorini belgilaydi hamda Jamiyat ishlarni samarali olib borish uchun tegishli barcha kundalik qarolarni Umumi Yig'ilish va Kuzatuv Kengashi tomonidan vaqt-vaqt bilan belgilangan tartiblar, ko'rsatmalar, qarorlar va/yoki yo'l-yo'riqlarga muvofiq qabul qiladi.

12.3. Tayinlash. Boshqaruv a'zolari bunday lavozimda ishlash uchun tegishli boshqarish malakasi va tajribasiga ega bo'lishi lozim. Har bir Aksiyador o'zi maqsadga muvofiq deb topgan har qanday paytda Kuzatuv Kengashiga o'zi taklif qilgan Boshqaruv a'zosining vakolatlarini bekor qilishni taklif etishi mumkin. Kuzatuv Kengashi bunday taklifni belgilangan tartibda o'zining navbatdagi majlisida ko'rib chiqishi kerak. Kuzatuv Kengashi Boshqaruvning har bir a'zosining huquqlarini, burch va vazifalarini, shuningdek uni ishga olish va ishdan bo'shatish shartlarini ushbu Ustav va Amaldagi Qonun Hujjalariiga muvofiq belgilaydi. Kuzatuv Kengashi o'zining biron-bir a'zosini har bir Boshqaruv a'zosi bilan Jamiat nomidan ishslash shartlarini muhokama qilishga va u bilan sharhnomaliga tuzishga vakolatlantirishi mumkin.

12.4. Vakolatlar. Boshqaruv Jamiatning faoliyatiga doir har qanday qarorlarini qabul qilishga haqli, Umumi Yig'ilishning va Kuzatuv Kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Quyidagi qarorlar Boshqaruv Raisining hamda Bosh direktorning o'zaro kelishuvi bilan qabul qilinadi:

- 12.4.1 Jamiatning texnik siyosatini belgilash;
- 12.4.2 Jamiatning eksport sotuvlarini rivojlantirish yo'llarini belgilash;
- 12.4.3 Jamiatning har qanday import-eksport operatsiyalari bo'yicha sharhnomalarni tuzishi;
- 12.4.4 Kuzatuv Kengashiga ma'qullash uchun taqdim etiladigan Yillik Biznes-Reja loyihasini tasdiqlash;
- 12.4.5 Jamiatning asosiy mijozlarini, ta'minlovchilarini va pudratchilarini ma'qullash;
- 12.4.6 250.000 (ikki yuz ellik yuz ming) AQSh Dollarining ekvivalentidan oshiq summadagi har qanday bitimlarni, jumladan sharhnomalarni, kontraktlarni, kafolatlarni va/yoki shunga o'xshash kelishuvlarni ma'qullash;
- 12.4.7 12.12-bandga muvofiq Boshqaruv yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalarni o'zaro kelishish va taqdim etish;

shu shart bilanki, agar Jamiyat Aksiyadorning biron-bir Bog'liq Shaxsi yoki bunday Bog'liq Shaxsnинг ishtirokida Amaldagi Qonun Hujjatlariга muvofiq biron-bir bitim tuzishni istasa, bunday bitim Boshqaruvning roziliginи olgandan so'ng Kuzatuv Kengashi muhokamasiga beriladi.

12.5. Boshqaruv Raisining vakolatlari. Boshqaruv Raisi unga ushbu Ustav, Amaldagi Qonun Hujjatlari va Kuzatuv Kengashining qarorlariga binoan berilgan vakolatlarga ega bo'lib, quyidagi muayyan harakatlarni amalga oshirishi mumkin, *shu shart bilanki*, bunday vakolatlar va harakatlar Yillik Biznes-Rejani bajarish bilan bog'liq holdagina qo'llaniladi:

12.5.1 Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, bitimlar tuzadi, unga ushbu Ustavda berilgan huquqlar doirasida qarorlar qabul qiladi, Jamiyatga doir buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi, ishonchnomalar beradi, shartnomalar, kelishuvlar, kontraktlar tuzadi, Jamiyatning hisobvaraqlarini, to'lov topshiriqlarini va hisobotlарини imzolaydi, shuningdek Jamiyatning manfaatlarini barcha davlat va chet el idoralarida, korxonalarida, firmalarida, tashkilotlarida va muassasalarida ifoda etadi;

12.5.2 Jamiyatning faoliyatiga operativ rahbarlik qiladi va ma'qullangan Yillik Biznes-Reja hamda Umumiy Yig'ilish va Kuzatuv Kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi, Jamiyatning butun faoliyatiga javobgar bo'ladi;

12.5.3 Umumiy Yig'ilish va Kuzatuv Kengashining qarorlari bajarilishi to'g'risida hisobotlarni Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvga taqdim etadi;

12.5.4 Boshqaruv a'zolariga o'z vazifalarini bajarishda yordam berishlari uchun Jamiyatning boshqaruv xodimlarini tayinlaydi va bo'shatadi, boshqaruv xodimlarining vakolatlari doirasini belgilovchi xizmat vazifalari bayon etilgan hujjatlarni tasdiqlaydi;

12.5.5 Jamiyat mol-mulkini ushbu Ustav va Aksiyadorlik Sharhnomasida kelishilgan shartlar va miqdor doirasida tasarruf etadi;

12.5.6 Jamiyat ishchilarining shtat jadvalini tasdiqlaydi;

12.5.7 Jamiyat manfaatlarini ko'zlab masalalarni hal etish uchun kerakli mutaxassislarни komandirovkalarga, jumladan chet elga jo'natadi;

12.5.8 Jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday hodisa haqida Boshqaruv va Kuzatuv Kengashining a'zolarini xabardor qiladi va uning oldini olish bo'yicha tadbirlarni muhokama qilish uchun Boshqaruv yig'ilishini chaqiradi;

12.5.9 Boshqaruvning har bir a'zosiga Jamiyatning buxgalterlik kitoblari va hisob-kitobga doir hujjatlaridan foydalanish huquqini beradi; va

12.5.10 Kuzatuv Kengashining har bir a'zosiga bunday a'zoni Jamiyatning faoliyati qanchalik unumli olib borilayotganligi haqida xabardor qilish maqsadida moliyaviy axborotlarni muntazam ravishda va biron-bir Aksiyadordan bunday axborotni taqdim etish bo'yicha aniq talab tushganda har qanday paytda taqdim etadi.

12.6. O'rinnbosarlik. Boshqaruv Raisi yo'q bo'lgan paytda uning huquq va vazifalarini vaqtincha Bosh direktor bajaradi. Bosh direktor yo'q bo'lsa, Boshqaruv Raisining huquq va vazifalarini vaqtincha ishlab chiqarish bo'yicha direktor bajaradi.

12.7. Qo'shimcha vazifa. Boshqaruv Raisi vazifasini hamda boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozimlarni o'rindoshlik yo'li bilan bir shaxsning egallashiga Kuzatuv Kengashi roziligi bilangina yo'l qo'yiladi.

12.8. Lavozimni suiiste'mol qilish. Boshqaruv a'zolari va boshqaruv xodimlari o'z manfaatini yoki boshqalar manfaatini ko'zlab Jamiatning faoliyatiga aynan o'xshash xo'jalik faoliyatni yuritishi mumkin emas, Kuzatuv Kengashi yozma rozilik bergan hollar bundan mustasno.

12.9. Boshqaruv a'zolarining javobgarligi. Boshqaruv a'zolaridan biri o'z xizmat vazifalarini buzsa, u buning oqibatida ko'rilgan barcha zararlar uchun Jamiat oldida javobgar bo'ladi. Xususan, Boshqaruv Raisi ushbu Ustavga muvofiq Umumiy Yig'ilish yoki Kuzatuv Kengashi tomonidan ma'qullanishi lozim bo'lган, lekin dastlab bunday ma'qullahsiz tuzilgan bitimlar natijasida ko'rilgan zararlar uchun Jamiat oldida javobgar bo'ladi.

12.10. Cheklangan saylanish. Boshqaruv a'zolari Kuzatuv Kengashiga saylanishi mumkin emas.

12.11. Tobelik. Boshqaruv ushbu Ustav hamda Jamiatning ichki hujjatlari asosida ish yuritadi.

12.12. Kun tartibida majburiy ko'rila'digan masalalar. Boshqaruvning har oyda o'tkaziladigan yig'ilishida majburiy ravishda quyidagi masalalar ko'riliadi:

12.12.1 oylik ishlab chiqarish rejalarini tasdiqlash, jumladan:

- har bir Mahsulotni ishlab chiqarish rejası,
- o'tgan oy normalaridan og'ish,
- muayyan ishlab chiqarish liniyalaridagi ehtimoliy to'xtab turish prognozi,
- rejali ehtiyyotdan qilinuvchi remont;

12.12.2 mufassal oylik sotuvsular rejasini tasdiqlash, jumladan:

- asosiy Mahsulotni, asosiy mijozlarni, to'lov hajmi, narxi va shartlarini,
- eksportga sotish,
- yangi mijozlarni jalb etish,
- marketing tadbirlar;


12.12.3 investision dasturning bajarilishini har oyda monitoring qilish, jumladan:

- kapital xarajatlar,
- oldingi oyga belgilangan topshiriqdan og'ish,
- ishga tushirish-sozlash ishlari jadvali;

12.12.4 Jamiatning iqtisodiy tahlilini tasdiqlash, jumladan:

- oylik moliya hisobotlari (bu'xgalteriya balansi va foyda va zarar hisobvaragi),
- tannarx,
- xarajatlarni kamaytirish dasturi,
- zapaslarning holatini tahlil qilish va ularni boshqarish,
- debitorlik qarzi to'g'risida batafsil hisobot,
- naqt pul oqimi;

12.12.5 asosiy tovarlarni va xizmatlarni sotib olish, jumladan:



- o'tgan oyda sotib olingen narsalar haqida umumiylumot;
- kelgusi oyda sotib olinadigan narsalar ro'yxatini tasdiqlash;

12.12.6 ishchilarni tayinlash va ishdan bo'shatish hamda ularga to'lanadigan haq miqdorini o'zgartirish;

12.12.7 sog'likni saqlash va mehnat xavfsizligi borasida statistik ma'lumotlar va atrof-muhit holatini nazorat qilish; va

12.12.8 Jamiyatga doir hal qilinmagan huquqiy masalalarni, jumladan uning yuristlari tayyorlagan hisobotlarni ko'rib chiqish.

12.13. Bayonnomma. Boshqaruv yig'ilishlari zarurat tug'ilganda Boshqaruv Raisining va Bosh direktorning birgalikda qabul qilgan qaroriga binoan kamida bir oyda bir marta o'tkaziladi. Boshqaruv yig'ilishida bayonnomma yuritiladi. Boshqaruv yig'ilishining bayonnomasi nusxasi Kuzatuv Kengashining a'zolariga va Taftish Komissiyasiga, shuningdek Mustaqil Auditorga ularning talabiga binoan taqdim etiladi.

12.14. Bayonnomaning to'g'riliqi. Boshqaruv Raisi Boshqaruvning yig'ilishini o'tkazishni tashkil qilib, Jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda Boshqaruv yig'ilishining bayonnomalarini imzolaydi.

12.15. Bank hisob-raqamini boshqarish. Jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborilgan 50.000 (ellik ming) AQSh Dollarining ekvivalentidan kam summaga bo'lgan har qanday to'lov topshirig'i boshqaruv tizimidan bo'lgan imzo qo'yish huquqiga ega shaxs sifatida Boshqaruv Raisi yoki Bosh direktor tomonidan imzolanadi hamda moliya tizimidan bo'lgan imzo qo'yish huquqiga ega shaxs sifatida Jamiyatning bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi; *shu shart bilanki*, Moliya direktori har qanday bunday to'lov haqida to'lov topshirig'ining barcha tafsilotlarini ko'rsatgan holda tegishli ravishda xabardor qilinishi lozim, 12.16-bandda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborilgan 50.000 (ellik ming) AQSh Dollarining ekvivalentidan oshiq summaga bo'lgan har qanday to'lov topshirig'i boshqaruv tizimidan bo'lgan imzo qo'yish huquqiga ega shaxs sifatida Boshqaruv Raisi yoki Bosh direktor tomonidan imzolanadi hamda moliya tizimidan bo'lgan imzo qo'yish huquqiga ega shaxslar sifatida ham Jamiyatning bosh hisobchisi, ham Moliya direktori tomonidan imzolanadi; *shu shart bilanki*, agar to'lov topshirig'i Boshqaruv Raisi yoki Bosh direktor tomonidan imzolangan bo'lsa, Moliya direktori har bir bunday to'lov topshirig'ini imzolashi shart, 12.16-bandda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

12.16. Maxsus bank hisob-raqamini boshqarish. MaxamCorp O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, MaxamCorp, Jamiyat va O'zKimyoSanoat o'rtasida 2007 yil 28-dekabrda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq kiritayotgan investitsiyalar summasini saqlash uchun ochilgan bank hisob-raqamidan biron-bir summani boshqa joyga o'tkazish haqidagi Jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborilgan har qanday to'lov topshirig'i boshqaruv tizimidan bo'lgan imzo qo'yish huquqiga ega shaxslar sifatida ham Boshqaruv Raisi, ham Bosh Direktor tomonidan imzolanadi hamda moliya tizimidan bo'lgan imzo qo'yish huquqiga ega shaxs sifatida Moliya Direktori tomonidan imzolanadi; *shu shart bilanki*, Jamiyatning bosh hisobchisi har qanday bunday to'lovlari haqida to'lov topshirig'ining barcha tafsilotlarini ko'rsatgan holda tegishli ravishda xabardor qilinishi lozim.

12.17. Chorasiz holat. Aksiyadorlik Shartnomasida aytilgan chorasiz holatlar vujudga

kelsa, Boshqaruv Jamiyatni ushbu Ustav, Aksiyadorlik Sharhnomasi, MaxamCorning investision dasturlari va Yillik Biznes-Rejaga muvofiq boshqarishni davom etadi, favqulodda hodisalar yuz berган holda esa Boshqaruv Raisi va Bosh Direktor Jamiyatning mol-mulkini va ishini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish uchun birgalikda kerakli yoki matlub deb topgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqli.

13-MODDA. TAFTISH KOMISSIYASI

13.1. Taftish Komissiyasi. Jamiyatning taftish komissiyasi ("Taftish Komissiyasi") uning nazorat qiluvchi organi hisoblanadi.

13.2. Moliyaviy nazorat. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini, jumladan moliya hisobotlari tizimini nazorat qilish uchun Umumiylig Yig'ilish 3 (uch) jismoniy shaxsdan iborat Taftish Komissiyasini saylaydi. Taftish Komissiyasining a'zolari Umumiylig Yig'ilish tomonidan 1 (bir) yillik muddatga saylanib, unga hisobot beradilar. Taftish Komissiyasining raisi Taftish Komissiyasining a'zolari tomonidan tayinlanadi. Boshqaruv a'zosi bo'lgan shaxs Taftish Komissiyasida ishlay olmaydi.

13.3. Vakolatlar. Taftish Komissiyasi:

13.3.1 Mustaqil Auditorning yillik taftish o'tkazishini nazorat qiladi;

13.3.2 yillik Umumiylig Yig'ilishdan uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Umumiylig Yig'ilishga Mustaqil Auditor tayyorlagan yillik tekshirish hisobotini va xulosani taqdim etadi;

13.3.3 Yillik Moliya Hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning to'g'ri ekanligini hamda ichki moliya nazoratining samaradorligini tekshiradi;

13.3.4 Amaldagi Qonun Hujjatlari muvofiq Moliya Yili yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi; va

13.3.5 ushbu Ustavda va Amaldagi Qonun Hujjatlarda belgilangan boshqa vazifalarni bajaradi.

13.4. Ovoz berish. Taftish Komissiyasining qarorlari Taftish Komissiyasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Taftish Komissiyasi ish kuni davomida Jamiyatning buxgalteriya kitoblari va hisob-kitob daftarlarni tekshirishga va ulardan nusxa olishga haqli.

13.5. Taftish Komissiyasining faoliyati. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini hamda hisobvaraqlari va hujjatlarini tekshirish (taftish qilish) Taftish Komissiyasi tomonidan uning o'z tashabbusiga binoan, Umumiylig Yig'ilishning yoki Kuzatuv Kengashining qaroriga hamda Aksiyalarning kamida o'n foiziga (10%) egalik qiluvchi Aksiyadorlarning talabiga binoan amalga oshiriladi.

13.6. Taftish Komissiyasining xulosasi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Taftish Komissiyasi xulosa tayyorlaydi, bu xulosada:

13.6.1 Yillik Moliya Hisobotida hamda Yillik Boshqaruv Hisobotida va Jamiyatning boshqa moliya hujjatlarida aks ettirilgan ma'lumotlar qay darajada to'g'rilingiga baho beriladi;

13.6.2 buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini taqdim etish tartibi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida Amaldagi Qonun

Hujjatlari buzilganligi to'g'risida axborot beriladi.

13.7. Ma'lumot olish. Taftish Komissiyasining talabiga binoan Jamiatning boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslar Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi kerakli hujjatlarni va shaxsiy tushuntirish xatlarini Taftish Komissiyasiga taqdim etishlari shart.

13.8. Umumi Yig'ilishni chaqirish huquqi. Taftish Komissiyasi Kuzatuv Kengashidan navbatdan tashqari Umumi Yig'ilish chaqirilishini talab qilishga haqli, shuningdek, agar Taftish Komissiyasi moliyaviy xatolarni, suiiste'mol qilish yoki Aksiyadorlarning manfaatlariga tahdid qilgan boshqa holatlarni sezib qolsa yoki fosh qilsa, u mustaqil ravishda navbatdan tashqari Umumi Yig'ilishni chaqirishi mumkin.

13.9. Saylanishning cheklanganligi. Taftish Komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Kuzatuv Kengashining yoki Boshqaruvning a'zosi bolishi, Jamiatning boshqaruv organlarida boshqa lavozimni egallashi, shuningdek Jamiatda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlashi mumkin emas.

14-MODDA. HISOB-KITOB VA HUJJATLAR

14.1. Buxgalteriya hisobi. Jamiat Amaldagi Qonun Hujjatlari va O'zbekiston Respublikasida qo'llaniluvchi umum qabul qilingan buxgalterlik tamoyillari talablariga muvofiq hamma vaqt aniq va to'la buxgalteriya hisob-kitobini yuritadi va boshqa moliya hisobotlarini taqdim etadi. Boshqaruv va Taftish Komissiyasi 14-MODDA, talablarining aniq va o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgardir. Jamiatning barcha buxgalteriya kitoblari, hisob-kitob daftarlari, hisobotlari va hisob-varaqlari uning yuridik manzili bo'yicha yuritiladi.

14.2. Hujjatlardan foydalanish huquqi. Jamiat Boshqaruvning har bir a'zosiga Jamiatning buxgalterlik kitoblari va hisob-kitob daftarlardan har qanday oqilonan paytda foydalanish huquqini beradi.

14.3. Hisobotlarni tuzish muddati. Jamiat faoliyatining moliyaviy yakunlari yillik buxgalteriya hisoboti asosida aniqlanadi. Moliya hisobotlari 14.10-bandga muvofiq har yilga tayyorlanib, ularda Jamiatning daromadi va xarajatlari ko'rsatiladi.

14.4. Moliya yili. Jamiatning moliya yili ("Moliya Yili") kalendar yiliga mos keladi va 1-yanvarda boshlanib 31-dekabrda yakunlanadi.

14.5. Ichki nazorat. Boshqaruv ichki moliya nazorati tizimini tashkil etib, barcha kvitansiyalarni, xarajatlarni, aktiv va passivlarni hujjatlashtirib boradi hamda xarajatlarning belgilangan darajalari uchun kerakli bo'lган ruxsatlar berilishini ta'minlaydi.

14.6. Mustaqil Auditorlar. Taftish Komissiyasi 14-MODDA, da ko'rsatilgan moliya va hisob-kitobga doir axborotlarni, xulosalarni hamda hisobotlarni tekshirish va tasdiqlash uchun xalqaro tan olingan va tegishli tajribaga ega, shuningdek O'zbekiston Respublikasida taftish tekshirishlarini olib borish uchun tegishli ruxsatnomalar o'lgan mustaqil auditorlik firmasini ("Mustaqil Auditor") Jamiatning mustaqil auditori sifatida Umumi Yig'ilishga tavsiya qiladi.

14.7. Mustaqil Auditorni yollash. Umumi Yig'ilishning ma'qullashi bilan, Boshqaruv Jamiatning moliya va buxgalteriya hisob-kitobiga doir hujjatlarni Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq har yili tekshirish uchun Mustaqil Auditorni o'ziga buxgalterlik firmasi sifatida yollaydi. Boshqaruv, boshqaruv xodimlari va ishchilar barcha tekshirish uchun

kerakli ma'lumotlar va hujjatlarni Mustaqil Auditorga o'z vaqtida beradilar. Shuningdek, Mustaqil Auditor faqat taftish o'tkazish va xulosa tayyorlash maqsadida Jamiatning buxgalteriya daftarlari va hisob-kitobga oid hujjatlarini tekshirish va ulardan nusxa olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

14.8. Moliyaviy axborot. Jamiat Kuzatuv Kengashining har bir a'zosiga uni Jamiatning faoliyati qanchalik unumli olib borilayotganligi haqida xabardor qilish uchun tegishli moliyaviy axborotni (Jamiat faoliyati bilan bog'liq ravishda ishlatishi uchun) taqdim etishi lozim, xususan, har bir Kuzatuv Kengashining a'zosiga quyidagilarni taqdim etadi:

14.8.1 14.9-bandga muvofiq ma'qullash uchun Yillik Biznes-Rejaning nusxasini;

14.8.2 O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasida umum qabul qilingan buxgalteriya hisobini yuritish standartlari, tamoyillari va amaliyotiga muvofiq tayyorlangan Jamiatning tekshirilgan hisobvaraqlaridan nusxani bunday tekshirilgan hisobvaraqlar tegishli Moliya Yili tugaganidan so'ng 4 (to'rt) oy ichida; va

14.8.3 Jamiatning uch oylik boshqaruv hisobotlarini ular tegish kvartal tugaganidan so'ng 30 (o'ttiz) kun ichida (bunda keyingi oyning birinchi kuni birinchi kun hisoblanadi), shuningdek bunday hisobotlar foyda va zarar hisobvarag'ini, buxgalteriya balansini va naqt pul oqimi to'g'risida hisobotni o'z ichiga oladi.

14.9. Yillik Biznes-Reja. Moliya Yili tugashidan kamida 45 (qirq besh) kun oldin Boshqaruv Kuzatuv Kengashining har bir a'zosiga dastlabki ko'rib chiqish uchun Jamiatning batatsil yillik ish rejasini ("Yillik Biznes-Reja") taqdim etib, unda texnik-iqtisodiy rivojlanish va sarf-xarajatlar, shuningdek Jamiatning ishlab chiqarish quvvatlarini investitsiya dasturiga hamda kimyo sanoatida va moliyaviy amaliyotda qo'llaniladigan tegishli xalqaro soha standartlarining mezonlariga binoan takomillashtirish, kengaytirish, tamomlash va ishlatishning alternativ yo'llari belgilanadi. Kelgusi Moliya Yilda Jamiatning faoliyati Yillik Biznes-Rejaga muvofiq olib borilib, u boshqa ma'lumotlar qatorida quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

(1) tegishli yilda bajarilishi lozim bo'lган vazifalar, jumladan, ishlab chiqarish jarayoni, mavjud ishlar va quvvatlarning samaradorligi, ishlab chiqarish texnologiyalari va kengaytirish rejasini ko'rsatilgan boshqaruv hisoboti;

(2) Jamiatning o'tgan Moliya Yilidagi faoliyatining yakunlari shu yilga tuzilgan Yillik Biznes-Reja bilan solishtirilgan holda sotilgan mahsulotlar miqdori, xarajatlar va boshqa muhim punktlar bo'yicha farqlarni ko'rsatuvchi tahlilni o'z ichiga olgan moliya hisoboti;

(3) kutilmagan hollarga tegishli zaxirani hisobga olgan holda, joriy xarajatlar va kutilayotgan balansga oid kapital va ekspluatasion xarajatlar smetasi;

(4) rejalashtirilgan foyda normasining iqtisodiy tahlili hamda qarzga olinadigan va o'ziga tegishli mablag'larning optimal miqdori hamda mablag' olinishi mumkin bo'lgan potensial manbalar yuzasidan takliflarni o'z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy tahlil va mablag' bilan ta'minlash rejasini;

(5) kerakli aylanma mablag'larning taxminiy hisobi ko'rsatilgan rejalashtirilgan oylik foyda va zarar hisobvarag'i hamda naqt pul oqimi haqida hisobot;

(6) atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sir va uni himoyalash bo'yicha choratadbirlari;

- (7) ishchilarning malakasini oshirish va oquv dasturlari;
- (8) munosib pudratchi va maslahatchilarni tanlash;
- (9) infrastruktura va xizmatlar;
- (10) ish kuchi talabi;
- (11) Mahsulotni sotish uchun taklif etilgan marketing dasturi; va
- (12) tijorat va xalqaro kreditorlar mablag' olish uchun bunday rejalarda ko'rsatishni talab qilgan boshqa bo'limlar.

Kuzatuv Kengashi Yillik Biznes-Rejani Moliya Yili tugashidan uzog'i bilan 31 (o'ttiz bir) kun oldin tasdiqlashi lozim.

14.10. Yillik Moliya Hisoboti. Yillik Umumi Yig'ilishdan kamida 60 (oltmish) kun oldin Boshqaruv Kuzatuv Kengashining a'zolariga o'r ganib chiqish uchun oxirgi Moliya Yili yakunlari bo'yicha moliya hisobotini ("Yillik Moliya Hisoboti") taqdim etadi, bunday hisobot Kuzatuv Kengashi tomonidan keyinchalik tasdiqlanishi lozim. Kuzatuv Kengashi Yillik Moliya Hisobotining shakli va mazmunini belgilaydi, biroq bunday hisobot cheklanmagan holda har doim Mustaqil Auditor tomonidan tekshirilgan, Taftish Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va Boshqaruv Raisi tomonidan imzolangan balans hisobotini, foyda va zararlar hisobvarag'ini va naqt pul oqimi to'g'risidagi hisobotni o'z ichiga olishi lozim. Yillik Moliya Hisobotida, shuningdek, olingan daromadni taqsimlash va/yoki qayta investitsiya qilish yoxud zararlarni qoplash yo'llari borasida takliflar keltiriladi. Kuzatuv Kengashi har bir Aksiyadorga yillik Umumi Yig'ilishga tayyorgarlik ko'rishi uchun axborot sifatida Yillik Moliya Hisobotini yillik Umumi Yig'ilishdan uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin yuboradi. Yillik Moliya Hisoboti Umumi Yig'ilish tomonidan tasdiqlanadi.

14.11. Yillik Boshqaruv Hisoboti. Yillik Umumi Yig'ilishdan kamida 60 (oltmish) kun oldin Boshqaruv Kuzatuv Kengashining a'zolariga o'r ganib chiqish uchun oxirgi hisobot yili yakunlari bo'yicha boshqaruv hisobotini ("Yillik Boshqaruv Hisoboti") taqdim etadi, bunday hisobot Kuzatuv Kengashi tomonidan keyinchalik tasdiqlanishi lozim. Yillik Boshqaruv Hisoboti cheklanmagan holda Taftish Komissiyasining oxirgi buxgalterlik balans hisoboti sanasigacha bo'lgan ahvol bo'yicha Yillik Moliya Hisobotining haqiqiyligi va ichki moliya nazoratining samaradorligi borasidagi xulosasini o'z ichiga oladi. Kuzatuv Kengashi har bir Aksiyadorga yillik Umumi Yig'ilishga tayyorgarlik ko'rishi uchun axborot sifatida Yillik Boshqaruv Hisobotini yillik Umumi Yig'ilishdan uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin yuboradi. Yillik Boshqaruv Hisoboti Umumi Yig'ilish tomonidan tasdiqlanadi.

14.12. Hujjatlarni saqlab qo'yish. Jamiyat butun faoliyati muddati davomida Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida qonunning 103-moddasida ko'rsatilgan hujjatlarni saqlab qo'yishi kerak, jumladan, Jamiyatning ta'sis hujjatlarini; Umumi Yig'ilishning barcha bayonnomalarini; Aksiyalar chiqarilishiga va joylashtirilishiga doir hujjatlarni; davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani va Jamiyatning mol-mulkiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni; filiallar yoki vakolatxonalar haqidagi nizomni; auditorning xulosalarini; ish haqini to'lashga doir va Jamiyatning ishchilariga nafaqa to'lash uchun kerakli bo'lgan boshqa ishchilarga oid hujjatlarni; Amaldagi Qonun Hujjatlarida talab etilgan boshqa hujjatlarni. Jamiyat hujjatlarni o'zining bosh idorasida yoki davlat arxivida saqlaydi.

14.13. Jamiyatning hujjatlaridan foydalanish. Har bir Aksiyador hamda uning tegishli ravishda vakolatlantirilgan vakili to'g'ri kelgan har qanday paytda Jamiyatga ikki kun oldin xabar berib, Jamiyatning barcha hujjatlaridan (buxgalterlik hisob-kitobga doir hujjatlar va

Boshqaruv yig'ilishlarining bayonnomalari bundan mustasno) va ularga bog'liq bo'lga boshqa barcha qo'shimcha hujjatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lib, bunday hujjatlardan nusxalar olishi yoki ko'chirmalar qilishi mumkin. Agar nusxa olish vaqtida uzoq bo'lsa va bir ishechini yarim ish kunidan ortiq vaqt mobaynida band qilsa, Jamiat bunday Aksiyadordan nusxa olish uchun tegishli haq olishi mumkin. Jamiatning barcha muhim hisobotlari, jumladan Yillik Moliya Hisoboti, Yillik Boshqaruv Hisoboti, Jamiat hisobiga o'z vaqtida o'zbek/rus va ingliz tillariga tarjima qilinadi.

15-MODDA. NIZOLARNI HAL ETISH

15.1 Asosiy Aksiyadorga da'vo. Agar Jamiat biron-bir masala yuzasidan biron Aksiyadorga da'vosi bo'lsa, u holda:

- 15.1.1 bunday Aksiyadorga da'vo qilish va uni ko'rib chiqish vakolati Boshqaruvga yuklatilib, u bunday Aksiyadorga qilingan da'volarni imzolashga va taqdim etishga hamda ular yuzasidan O'zbekistonning har qanday davlat organlarida ish yuritishga haqli;
- 15.1.2 bunday Aksiyador yoki uning Kuzatuv Kengashidagi yo Boshqaruvdag'i vakillari da'volarni ko'rib chiqishga ta'sir ko'rsatishi yoki ularni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilishi mumkin emas; va
- 15.1.3 bunday Aksiyador har qanday da'voga qarshi tushuntirishlar yoki isbot-dalillar keltirishga haqli.

15.2. Aksiyadorlar o'rtasidagi nizolar. Jamiatning ishlari bo'yicha yuzaga kelgan Aksiyadorlar o'rtasidagi barcha nizolar Umumiy Yig'ilishda hal qilinadi yoki Aksiyadorlik Sharhnomasiga muvofiq hal qilish uchun hakamlar sudiga topshiriladi.

16-MODDA. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

16.1. Qayta tashkil etish. Jamiat Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lism, ajratib chiqarish yoki o'zgartirish yo'li bilan qayta tashkil etilishi mumkin.

16.2. Tugatish. Jamiat quyidagi tartibda tugatilishi mumkin:

- 16.2.1 Umumiy Yig'ilishning qaroriga binoan ushbu Ustav va Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq ixtiyoriy ravishda;
- 16.2.2 O'zbekiston Respublikasi sudining qaroriga muvofiq Amaldagi Qonun Hujjatlarida belgilangan tartibda;
- 16.2.3 Amaldagi Qonun Hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra.

Jamiat ushbu Ustav, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 53-55-moddalari hamda Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunda belgilangan faoliyatni to'xtatish va tugatish tartibiga muvofiq tugatiladi va faoliyati to'xtatiladi.

16.3. Ixtiyoriy ravishda tugatish. Jamiat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda Kuzatuv Kengashining Raisi zudlik bilan Umumiy Yig'ilishni chaqirib, unda Aksiyadorlar Jamiatni tugatish masalasini muhokama qiladilar. Umumiy Yig'ilish Jamiatni davlat ro'yxatidan

o'tkazgan organ bilan kelishgan holda komissiya tuzib, bunday komissiyá tugatish jarayonini Amaldagi Qonun Hujjatlariiga muvofiq amalga oshiradi ("Tugatish Komissiyasi"), shuningdek tugatish vaqtி va tartibini belgilaydi, kreditorlarning talab qo'yish muddatini tayinlaydi, bunday kreditorlarning talab qo'yish muddati tugatish to'g'risida xabar e'lon qilingan paytdan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi lozim. Umumiylig Yig'ilish Tugatish Komissiyasiga to'lanadigan haq miqdorini hamda uning ishlash tartibini belgilaydi.

16.4. Tugatish tartibi. Tugatish Komissiyasi, agar Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan bo'lsa, yoki Jamiyatni sud qaroriga muvofiq tugatayotgan boshqa organ Jamiyat joylashgan joydagi rasmiy matbuotda Jamiyatning tugatilishi, kreditorlarning talab qo'yish tartibi va muddatlari to'g'risida xabar e'lon qiladi. Bunday xabarni e'lon qilish bilan birga Tugatish Komissiyasi (yoki tugatishni amalga oshirayotgan organ) Jamiyatning debitorlik qarzlarini olish va kreditorlar talablarini aniqlash chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek ularni Jamiyatning tugatilishi to'g'risida xabardor qiladi. Tugatish Komissiyasi (yoki tugatishni amalga oshirayotgan organ) Jamiyatning mol-mulkini baholaydi va kreditorlar bilan hisob-kitob qiladi, barcha kerakli Tugatish Balanslarini tayyorlab, ularni Umumiylig Yig'ilishga yoki sudga (agar tugatish sud qarori bilan amalga oshirilayotgan bo'lsa) tasdiqlash uchun taqdim etadi. Jamiyatning mol-mulki va aktivlari ularning eskirishini hisobga olgan holda baholanadi.

16.5. Tugatish Komissiyasining maqomi. Tugatish Komissiyasi tayinlangan paytdan boshlab Kuzatuv Kengashining va Boshqaruvning vazifalarini o'z bo'yniga oladi hamda Jamiyatning barcha ishlarini boshqarish vakolatini oladi. U imkonibor darajada Jamiyatning mavjud shartnoma majburiyatlarini bajarilishini, Jamiyatning boshqa boradagi faoliyati esa tugatilishini ta'minlaydi. Umumiylig Yig'ilishning qarorlari Tugatish Komissiyasi uchun bajarilishi majburiyidir. Tugatish Komissiyasining qarorlari ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

16.6. Javobgarlik. Tugatish Komissiyasi uning aybi bilan yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi. Tugatish Komissiyasining zarar keltirgan yoki keltirishi mumkin bo'lgan harakatlariga manfaatdor shaxslar sudda shikoyat qilishlari mumkin. Zararning miqdori va uni undirish tartibi sud tomonidan belgilanadi.

16.7. Tugatish Balanslari. Tugatish Komissiyasi Amaldagi Qonun Hujjatlariiga muvofiq oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tuzadi (har biri "Tugatish Balansi" deb yuritiladi), va bunday Tugatish Balanslarini Jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazgan organ bilan kelishilgan holda Umumiylig Yig'ilishga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Tugatish Komissiyasi tugatish natijasida tushgan mablag'larni Amaldagi Qonun Hujjatlariiga muvofiq ishlatalishini va taqsimlanishini ta'minlaydi. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin Tugatish Komissiyasi yakuniy Tugatish Balansini tuzadi.

16.8. Mol-mulkni taqsimlash. Jamiyat kreditorlari bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin Jamiyatning mol-mulki ushbu Ustav va Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunga muvofiq taqsimlanadi. Aksiyadorlar Jamiyat mol-mulkidan o'zlariga tegishli Aksiyalar soniga mutanosib qismini oladilar, shu shart bilanki, Imtiyozli Aksiyalarga egalik qiluvchi Aksiyadorlar Jamiyat mol-mulkini birinchi navbatda Umumiylig Yig'ilishining bunday Imtiyozli Aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorida belgilangan miqdorda olish huquqiga ega.

16.9. Jamiyatning faoliyatini tugatish. Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ (yoki har qanday boshqa tegishli Davlat organi) yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tegishli

yozuvlarni kiritib qo'ygan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan hisoblanadi. Jamiyat tugatilganidan so'ng ushbu Ustav o'z kuchini yo'qotadi va Aksiyadorlar tomonidan berilgan barcha huquqlar, shuningdek, Aksiyadorlarning ushbu Ustavda belgilangan barcha huquq va majburiyatları (Jamiyat faoliyatini to'xtatish va uni tugatish, Jamiyatning sof aktivlarini Aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash borasidagi huquq va majburiyatlar bundan mustasno) bekor qilinadi.

17-MODDA. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

17.1. O'zgartishlar, qo'shimchalar va yangi tahrir. Ushbu Ustavga kiritiladigan barcha o'zgartishlar, qo'shimchalar va uning yangi tahriri yozma tarzda tuziladi.

17.2. Majburiylik. Mazkur Ustav Aksiyadorlar hamda ularning tegishli huquqiy vorislari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lib, ularning foydasiga xizmat qiladi.

17.3. Ustavning tili. Mazkur Ustav o'zbek, rus va ingliz tillarida imzolanadi. Barcha tildagi matnlar birdek qonuniy kuchga ega, haqiqiy va bajarilishi shartdir.

17.4. Bildirish xatlari. Jamiyat va Aksiyadorlar yuboradigan barcha xabarnomalar, rozilik xatlari, huquqdan voz kechish haqida hujjatlar, ta'lablari va boshqa xabarlar yozma ravishda o'zbek/rus va ingliz tilida tuzilib, bunday xabarnomani yoki boshqa bildirishni yuborayotgan shaxs tomonidan imzolanishi lozim. Mazkur Ustavda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bildirish faqat (i) xat tashuvchi orqali yuborilgan bo'lib, olinganligi tasdiqlangan bo'lsa, (ii) teleks, faks yoki boshqa xabarni tez o'tkazuvchi vositalar orqali yuborilgan bo'lib, olinganligi tasdiqlangan bo'lsa, yoki (iii) pochta xizmatlari haqini oldindan to'lab, xat tashuvchi orqali yuborilgan bo'lsa, tegishli tarzda yetkazilgan hisoblanadi; biroq, *shu shart bilanki*, bunday bildirish yoki boshqa xabar:


17.4.1 Jamiyatga yuborilgan bo'lsa, 1.4-bandda ko'rsatilgan manzilga; va

17.4.2 Aksiyadorga yuborilgan bo'lsa, Aksiyadorlar Reystrida ko'rsatilgan manzilga jo'natilgan bo'lishi kerak.

Ushbu band qoidalari muvofiq yuborilgan har qanday bildirish u olinganligi tasdiqlangan kunda yetkazilgan deb hisoblanadi; biroq, *shu shart bilanki*, agar bildirish xat tashuvchi orqali yuborilgan bo'lsa, u yuborgan shaxs tomonidan tashuvchiga yetkazilgan kundan boshlab 5 (besh) kun o'tgandan so'ng yuborilgan deb hisoblanadi. Har bir Aksiyador boshqa Aksiyadorlar hamda Jamiyatga bildirish xati yuborish bilan tegishli hujjatlar yoki xabarlarni yo'llash uchun boshqa manzilni ko'rsatishi mumkin.

17.5. Ustav qoidalaring daxlsizligi. Ushbu Ustavning qoidalari Jamiyatning butun faoliyati muddati davomida o'zining qonuniy kuchini saqlaydi. Agar ushbu Ustavning bir yoki bir nechta qoidasi yangi qabul qilingan Amaldagi Qonun Hujjatlariga muvofiq qonuniy kuchini yo'qotgan, zid yoki bajarilish kuchiga ega emas deb topilsa, uning qolgan qoidalaring haqiqiyligi, qonuniyligi, majburiy bajarilishi va kuchi to'xtatilmaydi. Aksiyadorlar bunday qoidalarning o'miga yangi, qonuniy kuchga ega qoida kiritishga va uni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishga oqilona harakat qilishi lozim.

(Ushbu betning qolgan qismi atayin bo'sh goldirilgan)



UMUMIY YIG'ILISH RAISI

Familiyasi: A. Abdullaev

UMUMIY YIG'ILISH KOTIBI

Familiyasi: Mugayreda o.v.

Aksiyadorlarning nomidani:

“O’ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI

Familiyasi: A.Abdullaev

Lavozimi: Boshqaruv Raisi



Familiyasi:

Lavozimi:

“MAXAMCORP INTERNATIONAL S.L.” KOMPANIYASI

Familiyasi:

Lavozimi:

A handwritten signature in blue ink, appearing to read "D.P.", placed over a horizontal line.



“Ammofos - Maxam” AJ

Boshqaruv Raisi

Ibragimov N.S.,

A handwritten signature in blue ink, appearing to read "N.S. Ibragimov", placed over a curved line.



Hav. 10.2000: Lutf. Z.H. Iframov

A-ILOVA
ATAMALAR TO'PLAMI

A.1 Atamalar. Agar mazmunidan boshqacha ma'no anglashilmasa, ushbu Ustav maqsadlari uchun quyidagi so'zlar quyidagi ma'nolarga ega:

<i>Aksiyador</i>	sotib olingan Aksiyalarning haqini to'liq to'lagan va Aksiyadorlar Reyestrida Aksiyalar egasi sifatida ro'yxatga olingan shaxsni, shu jumladan MaxamCorpni va O'zKimyoSanoatni hamda ularning ruxsat etilgan vorislarini anglatadi.
<i>Aksiyadorlar Reyestri</i>	<u>3.4-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida qonun</i>	2014 yil 6-mayda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonunini anglatadi.
<i>Aksiyadorlik Sharhnomasi</i>	O'zKimyoSanoat va MaxamCorp o'rtaida 2008 yil 28-sentyabrda tuzilgan sharhnomani anglatadi, unga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan taqdirda.
<i>Aksiya Miqdori</i>	<u>3.4-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Aksiyalar</i>	Jamiyat tomonidan ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlar o'rtaida joylashtiriladigan Oddiy Aksiyalarni va Imtiyozli Aksiyalarni anglatadi.
<i>Amaldagi Qonun Hujjatlari</i>	Davlat Organlari tomonidan chiqarilgan, e'lon qilingan va sharhlab berilgan barcha O'zbekiston Respublikasining normativ aktlarini (shu jumladan cheklanmagan holda qonunlar, qarorlar, nizomlar, qoidalar, ko'rsatmalar, rezolyutsiyalar va farmoyishlar kabi qonun va qonunga bo'y sunuvchi hujjatlarni) anglatadi.
<i>Bog'liq Shaxs</i>	shunday shaxski, u bog'langan shaxs bilan birgalikda biri ikkinchisini bevosita yoki bilvosita nazorat qiladi, biri ikkinchisi tomonidan nazorat qilinadi yoki u bilan umumiy nazorat ostida bo'ladi. Bu yerda "nazorat" so'zi ovoz berish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozlarga egalik qilish, sharhnomalar, ishonchli boshqarish asosida bitta shaxsning barcha aksiyalarni o'z qo'liga olishi yoki boshqa yo'llar bilan bevosita yoki bilvosita boshqarish hamda faoliyat yo'nalishlarini belgilash huquqi va vakolatiga egalik qilishni bildiradi.
<i>Boshqaruv</i>	<u>12.1-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Davlat Organlari</i>	O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlarini, mahkamalarini, vazirliklarini va qo'mitalarini (jumladan, Oliy Majlisni, Prezidentni, Vazirlar Mahkamasini, sudlarni va hakamlar sudlarini), xoh respublika miqyosida bo'lsin, xoh 

	mahalliy darajada bo'lsin, shuningdek, ularning bo'limlarini anglatadi.
<i>Dividend To'lash Siyosati</i>	Aksiyadorlar tomonidan tasdiqlangan Dividendlar hisoblash va to'lash siyosatini anglatadi.
<i>Dividendlar</i>	<u>6.2-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Erkin Almashtiriladigan Valyuta</i>	yevroni, AQSh dollarini, Yapon yenini, Angliya funt sterlingini, Shveysariya frankini hamda har qanday boshqa kvotalanmaydigan, almashtirish kursi yoki Valyuta nazorati ta'sir ko'rsatmaydigan, xalqaro Valyuta bozorlarida muntazam sotiladigan va Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan erkin almashtiriladigan Valyuta deb e'lon qilingan Valyutani bildiradi.
<i>Imtiyozli Aksiyalar</i>	<u>5.7-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Jamiyat</i>	ushbu Ustavning kirish qismida berilgan ma'noga ega.
<i>Kuzatuv Kengashi</i>	<u>11.1-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Kuzatuv Kengashining Raisi</i>	<u>11.11-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Mahsulot</i>	kimyo sanoati tizimida ishslash va kundalik ish faoliyati jarayonida ishlab chiqariladigan barcha va har qanday tovarlarni, mahsulotlarni, iste'mol mollarini, materiallarni yoki narsalarni anglatadi, jumladan fosforlik va boshqa turdag'i o'g'itlarni ishlab chiqarish.
<i>MaxamCorp</i>	Ispaniya Qirolligi qonunlariga muvofiq ro'yxatga olingan va faoliyat yurituvchi "MaxamCorp International S.L." korporatsiyasini anglatib, uning yuridik manzili quyidagicha: <i>Avenida Del Partenón, 16, Campo de las Naciones 28042, Madrid, Spain</i> , yoki uning har qanday huquqiy vorislarini anglatadi.
<i>Moliya Yili</i>	<u>14.4-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Mustaqil Auditor</i>	<u>14.6-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>Oddiy Aksiyalar</i>	<u>5.6-bandda</u> berilgan ma'noga ega.
<i>O'zKimyoSanoat</i>	O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tegishli ravishda ro'yxatga olingan va faoliyat yurituvchi "O'zKimyoSanoat" aksiyadorlik jamiyatini anglatib, uning yuridik manzili quyidagicha: <i>O'zbekiston Respublikasi, Toshkent 100011, Navoiy ko'chasi 38-uy</i> .
<i>Taftish Komissiyasi</i>	<u>13.1-bandda</u> berilgan ma'noga ega.

<i>Tugatish Balansi</i>	<u>16.7</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Tugatish Komissiyasi</i>	<u>16.3</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Umumiy Yig'ilish</i>	<u>10.1</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Ustav</i>	ushbu Ustavini anglatadi.
<i>Ustav Fondi</i>	<u>3.1</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Yillik Biznes-Reja</i>	<u>14.9</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Yillik Boshqaruv Hisoboti</i>	<u>14.11</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Yillik Moliya Hisoboti</i>	<u>14.10</u> -bandda berilgan ma'noga ega.
<i>Zaxira Fondi</i>	<u>7.1</u> -bandda berilgan ma'noga ega.

A.2 Sarlavhalalar. Ushbu Ustav moddalari va bandlarining sarlavhalari faqat qulaylik uchun qo'llanilgan bo'lib, uning hech bir qoidasining ma'nosiga yoki talqin etilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

A.3 Havolalar. Ushbu Ustavda keltirilgan moddalar va bandlarga havolalar uning moddalari va bandlariga qilingan havolalardir.

A.4 Son. Birlikda keltirilgan so'zlar ko'plikni ham anglatadi va buning aksi, ko'plikda keltirilgan so'zlar birlikni ham anglatadi.

Тикшігін ет ракамдаған
Жами 37 заражда

Юридик бүлім бөштеги:

